

57

N 62

Asqar Nig'matov

574

# EKOLOGIYA NIMA?

2032899



TOSHKENT—2005

*A. Nig'matov. Ekologiya nima?* — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2005. — 64 b.

Risola mazkur mavzuda ikkinchi bor o'zgartirilgan va qayta ishlangan tarzda nashr etilmoqda. Bunga sabab bo'lib, *birinchidan*, kichik hajmda va sodda tilda yozilgan qo'shimcha adabiyotlarga o'quvchi yoshlarning qizi-qishini kuchayishi bo'lsa, *ikkinchidan*, ekologik dunyoqarashlarni tez rivojlanib, o'zgarib va shakllanib borayotganligidir. Unda muallif oddiy va ravon tilda, muloqt tarzida inson va tabiat, Ekologiyaning asl mohiyati, uni turdosh fanlardan farqlanishi, jamiyat va tabiat qonuniyatlarini uyg'unlash-tirish zarurati to'g'risida so'z yuritadi.

Risola asosan talabalar, magistrlar va aspirantlarga mo'ljallangan bo'lib, undan pedagoglar va keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishlari mumkin.

## MUNDARIJA

Muqaddima .....	3
Tabiat va inson .....	4
Ekologiya nima o'zi? .....	8
Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish .....	20
Tabiat va jamiyat qonuniyatlarini uyg'unlashtirish .....	32
Ekologiyaga oid savollar va javoblar .....	38

*Asqar Nig'matov*

## EKOLOGIYA NIMA?

«Turon-Iqbol» nashriyoti — 2005.

Muharrir *S. Abdunabuyeva*

Musavvir *J. Gurova*

Texnik muharrir *T. Smirnova*

Musahihh *M. Akromova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Ye. Gilmutdinova*

Bosishga 10.11.05 da ruxsat etildi. Bichimi  $84 \times 108^1/_{32}$ .

«Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 3,36.

Nashr t. 4,0. Jami 1000 nusxa. 157-raqamli buyurtma.


«ARNAPRINT» MCHJda sahifalanib, chop etildi.

Toshkent, H.Boyqaro ko'chasi, 41.

© A. Nig'matov, 2005.

© «Turon-Iqbol», 2005.

Tabiat ustidan g'alaba — inson falokatidir.  
*Ekologik manifest*



## MUQADDIMA

XXI asrga kelib insoniyatni tashvishga solayotgan dolzarb masalalardan biri — ekologik muammodir. Shuning uchun bo'lsa kerak, deyarli hamma gumanitar, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tabiiy, aniq fanlar va o'quv predmetlari hamda ma'rifiy-madaniy tadbirlar, davlatlar o'tasidagi uchrashuvlar, xalqaro anjuman va hattoki, biznes-shou chiqishlar ham, xuddi ana shu muhim muammoga bag'ishlanmoqda. Chunki ekologiyaga qaratilgan tadbir, dastur va rejalar, ilmiy ishlar yoki ta'lim yo'nalishlari keng jamoatchilik tomonidan juda katta qiziqish bilan qarshi olinmoqda.

Ekoliya sohasi bo'yicha dunyoda turli ko'rinish, mavzu, shakl va hajmda minglab maqola, risola, kitob va darsliklar chop etilmoqda. Ular nafaqat har xil til va yozuvda, balki o'ziga xos informatik ma'lumot uzatuvchi va tez moslanuvchi kosmik kommunikatsion usullar orqali butun insoniyatga jadal sur'atlarda tarqatilmoqda. Shuning uchun ham hozirgi zamonda maktab o'quvchisini har qanday nashriyot mahsulotlari bilan qiziqtira olish va uni e'tiborini jalb qilish murakkabdir.

Aziz kitobxon! Bu risolada biz, Sizlar bilan, «ekoliya alifbosi» haqida fikr va mulohazalar yuritamiz. Sodda va iloji boricha ravon tilda «*ekoliya nima?*» degan savolga javob izlaymiz. Uning ochilgan yoki ochilmagan, yechilgan yoki yechilmagan, tortishuvlarga sabab bo'layotgan masalalariga to'xtolib o'tamiz. Xullas, jonli va jonsiz organizmlar, jumladan inson va uni o'rab turuvchi atrof-muhit o'tasidagi o'zaro aloqadorlik xususida bahslashamiz. Keng jamoatchilik, xususan o'quvchilar o'tasida yuzaga kelayotgan savollarga javob berishga harakat qilamiz. Shu orqali ularning ekologik ongi, bilimi, ko'nikmasi va madaniyatini shakllantirishga ozgina bo'lsada xizmat qilsak, oldimizga qo'yan ezgu maqsadimizga erishdik, deya olamiz.

Tarixga ikki xil yondashish mumkin, ularning biri — tabiat, ikkinchisi — inson tarixidir. Lekin inson bor ekan, ular uzviy bog‘langan va o‘zaro aloqadorlikda.

*Mutafakkirlar dunyoqarashi*

## TABIAT VA INSON


Asrlar davomida buyuk allomalar *inson va tabiat nima*, degan savolga javob qidirib kelganlar. Inson tirik organizm sifatida boshqa tabiiy obyektlardan tubdan farq qilishi hamda uning buyuk kuch-qudrati, uni alohida bir mayjudot sifatida qarashga da’vat etib keldi. Ayniqsa bunday dunyoqarash, XX-XXI asrlar ya’ni ilmiy-texnika yutuqlari davriga kelib avjiga chiqdi (1-rasm). «Tabiat ustidan g‘alaba»ga erishgan *inson* barcha ilmu fan tarmoqlarida alohida bir omil sifatida qaraladigan bo‘ldi. Lekin inson aslida alohida bir «individ» yoki hech kimga bo‘ysunmaydigan «shokim» emas, u tabiatning bir bo‘lagi, «tabiat oshxonasining bir anjomidir». Insonni hech qachon tabiatdan va uni o‘rab turuvchi atrof tabiiy muhitdan ajratib bo‘lmaydi.

Falsafada *tabiat* — obyektiv borliq, ya’ni bizni o‘rab turuvchi olam va uning xilma-xil shakllari tushuniladi. Amaliyotda yoki tabiiy fanlarda uni kishilarni moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish manbayi bo‘lgan atrof tabiiy muhit deb qaraladi. Falsafiy yoki astronomik nuqtayi nazardan qaraganda, birinchi keng ma’no to‘g‘ridir. Chunki yulduzlar, planetalar, osmon va uning cheksiz kengliklari, albatta, inson ishtirokisiz kelib chiqqan va tabiiydir. Lekin insonlar kundalik hayotiy faoliyatida ulardan foydalanmaydilar va ulardagi jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydilar. Balki o‘zini o‘rab turuvchi havo, suv, yer, yer osti boyliklari, o‘simgilik va hayvonot dunyosi kabi tabiat ne’matlardan «oldi-irqasi»ga qaramasdan foydalanadilar va ularga ta’sir etadilar. Nafaqat insonlar, balki butun jonzotlar ham bundan istisno emas.

*inson yoki inson* Yer kurrasining jonli qobig‘i — biosferada yashovchi tirik organizmlar turkumiga kiruvchi, lekin murakkab hayotiy faoliyat yurgazuvchi individdir. U ongingin yuqoriligi, nutqining rivojlanganligi, ijodiy faolligi, takomillashgan mehnat qurollarini yarata olishi, axloqiy, ma’naviy hamda

ruhiy o‘z-o‘zini anglay olishi bilan boshqa tirik organizmlardan tubdan ajralib turadi. Ularni muayyan bir hududlarda tarixan qaror topgan guruhi yoki majmuyi — *jamiyatdir*. Xuddi ana shu insonlar jamoasi tabiat bilan juda uzviy munosabatda bo‘ladi.

Insonning yakka o‘zi uncha katta kuch emas, ammo ularning ongli ravishda biron bir maqsadni ko‘zlab, takomil-lashtirilgan mehnat qurollaridan foydalangan tarzda uyushgan



*I-rasm. Ekologik xavfsiz muhit: kecha, bugun, ertaga.*

holdagi jamoasining tabiatga bo'lgan munosabati ko'p narsani belgilab beradi. Agarda o'z ehtiyojlarini qondirishni faqatgina tabiatdan qidirishni jamiyat maqsad qilib olsa, atrof-muhitda juda sezilarli darajada salbiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksincha, ushbu jamiyat kuchi tabiatni yaxshilashga, undan oqilona foydalanishga qaratilgan bo'lsa, u holda atrof-muhitda ijobjiy o'zgarishlarga olib kelishi ham mumkin.

Insonlarning, to'g'rirog'i fuqarolarning, muayyan ma'muriy hududda uyushgan qismi, ya'ni davlat orqali salbiy yoki ijobjiy jarayonlarga huquq orqali ta'sir etishi tabiatni, xususan, atrof tabiiy muhitni keskin o'zgartirib yuborishi muqarrardir. Lekin tabiatni ma'lum bir hududda, salbiy yoinki ijobjiy o'zgarishi albatta o'zga ma'muriy birlik va ulardag'i inson, jamiyat va davlatga (davlatlarga) salbiy yoki ijobjiy ta'sir etishi isbot talab etmaydi. Xullas, inson, jamiyat va davlat o'zaro uzviy bog'langan, biri ikkinchisidan, ikkinchisi uchinchisidan kelib chiqadigan kishilik jamiyatining turli shakllaridir. Ular doimo atrof tabiiy muhit bilan uzviy bog'langandirlar.

Yana bir atamaga biz risolani boshidanoq aniqlik kiritib olishimizga to'g'ri keladi. Insonlarni o'rab turuvchi tabiatni turli adabiyotlarda, ommaviy axborot vositalarida turlicha — «*atrof-muhit*», «*atrof tabiiy muhit*», «*insonlarni o'rab turuvchi muhit*», «*insonlarni yashash muhiti*», deb ataydilar. Xo'sh, qaysi bir ibora ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan to'g'ri? Albatta, yuqorida nomlari keltirilgan iboralarni turlicha ishlatilishi tabiiy hol. Chunki har bir mualif o'zining ixtisosligiga, maqolaning kimlarga bag'ishlanganligiga va hattoki, uning kasbiy mahoratiga hamda ilmiy darajasiga qarab ham mazkur iboralarni turlicha ifoda etishi mumkin. Nima bo'lganda ham biz ushbu iboralarga ilmiy-amaliy izoh berishga harakat qilamiz.

**Birinchidan** — agarda yoritilayotgan masala insonlarni tabiatga nisbatan yo'naltirilgan munosabat shakllariga qaratilgan bo'lsa — *atrof tabiiy muhit* so'zlar birikmasini ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki insonlarni nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy va shunga o'xhash muhitlar ham o'rab turadi. Ushbu muhitlardan tabiisini ajratib olish maqsadida biz uni «*atrof tabiiy muhit*» so'zi orqali ifoda etishni to'g'ri, deb bilamiz.

Lekin atrof tabiiy muhitni keskin o'zgarib ketishi ma'lum bir hududlar yoki mintaqalarda siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy muhitlarni ham o'zgartirib yuborishi mum-

kin. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Yevropada sanoat gurkirab o'sdi, aholi ushbu mintaqada haddan ziyod ko'p to'plandi, davlatlarning iqtisodiy-siyosiy talablari tabiat qonuniyatlarini inkor etdi. Natijada, atrof tabiiy muhit izdan chiqdi, insonlarning yashashi og'irlashdi va, hatto, ularning aksariyati nisbatan «tabiatni saqlanib qolning» Amerika, Avstraliya, Yangi Zellandiya kabi qit'a va orollarga ko'chib ketishiga sabab bo'ldi. Buni ko'rgan rahbarlar, XX asrga kelib Yevropada sanitarni-gigiyenik talablarini kuchaytirishga, qonunlar va ishlab chiqarishni ekologiyalash-tirishga, qarama-qarshi davlatlarni ushbu masala bo'yicha «til topishga» majbur etdi. Oqibatda «Umumiy ekologiya» degan fan yuzaga keldi va u xalqaro miqyosga olib chiqildi. Chunki inson bilan tabiat o'rtafiga «kelishmovchilik» nafaqat atrof tabiiy muhitga, balki ma'lum darajada ichki va tashqi munosabatlarga salbiy ta'sir qila boshladi. Shuning uchun ham Xalqaro huquqda xalqaro hamjamiyat tomonidan «*atrof tabiiy muhit*» iborasini «*atrof-muhit*» degan ibora bilan almashirildi.

**Ikkinchidan** — ijtimoiy fanlarda o'rganish yoki izlanish obyekti bo'lib inson, fuqaro yoki shaxs hamda ularning jamoasi hisoblaniladi. Shuning uchun ham ular inson va tabiat o'rtafiga munosabatni «insonlarni o'rab turuvchi muhit», «insonlar yashovchi muhit» deb ataydilar. Buni mutlaq «to'g'-ri» yoki mutlaq «noto'g'-ri» deyish qiyin. Lekin inson yashayotgan va uning ta'siri doirasidagi tabiiy muhit qolgan turdagি tirik organizmlar(hayvonot va o'simlik dunyosi)ning ham atrof-muhitidir. Faqatgina ular tabiat bilan hamohanglikda, ya'ni ma'lum bir muvozanatda va «*kelishgan*» holda yashaydilari hamda rivojlanadi. Insonlar esa, o'ziga xos bo'lgan individ sifatida tabiat bilan «*kelishmasdan*» ham yashashlari mumkin. Shuning uchun insonlarni o'rab turuvchi tabiiy muhit yoki ularni yashash muhiti, so'zsiz, *atrof tabiiy muhit* yoki *atrof muhit* bo'la oladi.

**Uchinchidan** — inson va tabiat Yer kurrasida juda uzviy bog'langan va o'zaro kuchli ta'sir doirasida turadi. Aynan o'zaro ta'sir doirasida, chunki insonni tabiatga bo'lgan har qanday ta'siri (xoh u ijobjiy, xoh u salbiy bo'lsin) oxir oqibatda insonning o'ziga aks sado bo'lib qaytib keladi (yo rahmatini yog'diradi, yo o'chini oladi). Buni anglagan ibtidoiy insonlar va ularning jamoasi tabiatni bir bo'lagi sifatida, uning «bag'ri»da yashab kelganlar.

Zardushtiyarning muqaddas Avesto kitobining Vandidod qismida<sup>1</sup> tabiatni, xususan — yer, suv, havo, olovni ajdodlarimiz xudo deb bilgani haqidagi ma'lumotlarni bizlarga yetkazadi. Yer va olov xudosi — «Mitra»ga insonlar sig'inishgan. Ularni ilohiy kuch deb bilishgan va ularga yetkazilgan zarar uchun, hattoki, o'lim jazosini qo'llashgan. Suvni iflos qilish oliy tangriga qilingan xuruj deb qaralgan. Tabiatga nisbatan bunday dunyoqarashlar zardushtiylar dinining asosini tashkil qilgan va unda zikr etilgan qadimiy axloq odob qoidalari shu davrdagi 16 ta davlatda qo'llanilgan.

Aksincha, sobiq Ittifoq davrida Markaziy Osiyo hududini xomashyo va ayniqsa paxta yetishtirish bazasi qilib olinishi «Orol muammosi»ni yuzaga keltirdi. Insonlar esa ushbu hududlardan qocha boshladilar, chunki atrof tabiiy muhitni inqirozli darajada buzilishi aholi o'rtasidagi barcha munosabatlarga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi. Kishilarning bexavotir va sog'lom yashashlari qiyinlashdi. Mintaqaning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga jiddiy putur yetkazildi.

Xullas, tabiat va insonning o'zaro uzviy aloqadorligi atrof tabiiy muhitda aks etadi. Hozirgi zamonda atrof tabiiy muhit holati ko'proq tabiatga emas, balki insonga bog'liqdir. Biz tabiatdan ajralgan tarzda yashay olmas ekanmiz, uning ajralmas bo'lagi bo'lib qolishimiz lozim. *Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash esa barchamizning muqaddas burchimizdir.*

Fanda va ayniqsa ta'limdi bitta so'zni turlicha ifoda etilishi, uning mazmun va mohiyatiga turlicha yondashishga sabab bo'ladi.

M.N.Zaslavskiy

## EKOLOGIYA NIMA O'ZI?

Zamonamizda kompyuter, informatika, huquq, qonun, davlat kabi eng ko'p ishlatiladigan so'zlardan biri — *ekologiyadir*. Xo'sh, Ekologiya nima o'zi degan savol tug'ilishi muqarrar. Chunki o'rta asrlarda «Teologiya», ya'ni din haqidagi fan qanday ommalashgan bo'lsa, shu kunda «Ekologiya» ham shunday keng tarqalgandir. Shuning uchun bo'lsa kerak, har bir olim, mutaxassis yoki ijodkor o'zini «ekologman» deb

<sup>1</sup> Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. — T.: «Sharq», 2001. — 384-b.

hisoblaydi. Mayli, nima bo'lganda ham ekologiyaning taraf-dorlari ko'payaversin. Lekin *fanda va ayniqsa ta'linda bitta so'zni turlichcha ifoda etilishi, uning mazmun va mohiyatiga turlichcha yondashishga sabab bo'ladi. Bu esa «ekologlar»ning fanga yoki ta'limga bergen yordamlaridan ko'ra zararlari ko'proq bo'lishi ham mumkin.*

An'analarga ko'ra, Ekologiya — tirik organizmlar o'zaro va ularni yashash muhiti bilan bo'ladigan munosabati haqidagi fan, deb yuritiladi. Bu ma'no uning grekcha atamasidan kelib chiqqan tarzda ifoda etilgan. Chunki grekchada «oikos» — uy, yashash joyi, yashash muhiti, «logos» — ta'limot degan tushunchani anglatadi. Uni birinchi bo'lib fanga nemis tabiat-shunos olimi Ernest Gekkel 1866-yilda chop etilgan o'zining «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» degan kitobi orqali olib kirdi. Uning ta'rifiga ko'ra, «*Ekologiya — tabiatni iqtisodiy jihatdan tadqiq qilish orgali hamma tirik organizmlarning organik va noorganik muhit unsurlari bilan birga, uning ta'sir doirasida turgan antagonistik va noantagonistik aloqadorlikda bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosi o'rtaсидagi munosabatlarni ochib berishi*»dir. U buyuk ingliz olimi Charlz Darvinnning tirik organizmlarning evolutsion rivojlanishi to'g'risidagi ta'lilotini rivojlantirib, har qanday tirik organizm atrof tabiiy muhitga moslashib, o'zining morfologik (ichki) va morfometrik (tashqi) ko'rsatgichlarini o'zgartirib borishini, moslashmagani esa tabiiy tanlash asosida qirilib ketishini isbotlab berdi.

E.Gekkel ekologiya so'ziga ta'rif berib inson tomonidan «tabiatni iqtisodiy tadqiq qilish» degan iboralari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u tabiatni son jihatdan ifodalananishi inson iqtisodiyotiga nechog'liq bog'liqligini ifoda etdi.

E.Gekkeldan so'ng ekologiya iborasiga minglab o'zgartirishlar kiritildi. Nima bo'lganda ham hanuzgacha uning bir-lamchi tushunchasi umumiy tarzda saqlanib qolindi. Turli fikrlarni umumlashtirgan holda *biz ekologiyani noevolutsion tarzda rivojlanuvchi tabiat tizimidagi tirik organizmlar va ularning atrof-muhiti bilan bo'ladigan munosabatlariga doir qonuniyatatlarni tadqiq qiluvchi fan tarmog'i, ularga oid bilimlarni beruvchi ta'lim yo'nalishi, ularni optimallashtiruvchi xalq xo'jaligi sohasi*, deyishimiz mumkin.

Ekologiya XIX asrning ikkinchi yarmida biologiya fanlari tizimiga kirgan edi. Chunki u tirik organizmlar haqidagi fan tariqasida birinchi bo'lib biologlar tomonidan taklif etilgan.

Lekin zamonlar o'tgani, fan va ta'lif rivojlangani sari **ekologiya nafaqat mustaqil fan sohasi**, balki **fanlar tizimiga** aylanib ketdi. Hozirgi kunda mutaxassislarning hisoblariga ko'ra, 70dan ziyod ekologik fanlar mavjud bo'lib, ular deyarli barcha fan tarmoqlarini o'ziga qamrab olgandir (2-rasm).

Hamma jumboq shundaki, biz Sizlar bilan ushbu risolada **ekologiyani boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rni**ni aniqlashtirib olishimiz kerak bo'ladi. Chunki, biz taniqli Amerika ekolog olimi E.Makfedenni fikriga qo'shilgan holda, ekologiyani boshqa fanlar va ayniqsa biologiyadan ajratib olishimiz, jumboqni «kalavasi»ni topish bilan tengdir.


Hammamizga ma'lumki, biologik fanlar — zoologiya, botanika, sitologiya, bioximiya, genetika, morfologiya, embriologiya, fiziologiya kabilar asosan tirik organizmlarga tegishli bo'lgan holat, jarayon va hodisalarini talqin qiladi. Atrof tabiiy muhit esa faqatgina tashqi omil sifatida qaraladi va bir tomonlama tadqiq qilinadi. Ularning morfologik, morfogenetik, morfometrik ko'rsatgichlarini tabiatga bog'lagan tarzda ochib berilishi ham mumkin. Lekin biologik fanlar bevosita, tadqiqot predmeti sifatida, organizm va atrof tabiiy muhitning bir-biriga «aks sadosi»ni, ya'nii ikki tomonlama o'zaro ta'sirini bevosita o'rganmaydi.

Meditrina, sotsiologiya, ijtimoiy fanlar ham tirik organizmlardan bo'l mish insonlarning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari, harakat qilish va uyuşshish qonuniyatlarini atrof tabiiy muhitga bog'liq ravishda bir tomonlama o'rganadi.

Yer haqidagi fanlar (geografiya, umumi Yer bilimi, tupoqshunoslik, geologiya, gidrologiya, klimatologiya kabilar) Yer usti va yer ostida organizmlarning kelib chiqishi, tarqalishi, rivojlanishi qonuniyatlarini atrof tabiiy muhit bilan bog'liq holda bir tomonlama tadqiq qiladi.

Iqtisod, informatika va matematikaga oid fanlar tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni son va sifat jihatidan baholaydi, modellashtiradi. Fizika va kimyo fanlari ushbu jarayonlarning mazmun va mohiyatini aniq qonuniyatlar asosida ochib beradi.

Umuman olganda, ekologiya fani yuzaga kelguniga qadar yuqorida nomlari tilga olingan fanlar tabiat va inson o'rtasidagi barcha munosabatlarni ochib bergandek tuyuladi. Shu-



2-расм. Экологик фанлар тизими.

ning uchun ham keng qamrovli fanlar orasida ekologiyaga o'rin bormikan, degan o'rinli savol tug'iladi.

Bizga ma'lumki, zamon taraqqiyoti (ayniqsa XX va XXI asrlarda) fanlarni tarmoqlashuvga olib kelmoqda. Aynan eng ommaviy tus olayotgan fan sohasi ikki yoki bir necha fanlar «chorrahasida unib chiqmoq»da. Bu tabiiy va obyektiv jaryondir. Fizika, matematika, kimyo, falsafa, geografiya, biologiya kabi «sof fanlar»ga amaliy ehtiyoj kamaya bormoqda. Chunki, bir tomonidan, ular o'z imkoniyatlarini kamaytirgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, jamiyatda va, ayniqsa, tabiatda bir-biri bilan bog'lanmagan, biri ikkinchisidan kelib chiqmaydigan hodisa va jarayonlar yo'q. Hamma jarayon va hodisalar uзвиy bog'liqlikda va o'zaro aloqadorlidadir. Ekologiya esa inson va tabiatni har tomonlama, uзвиy bog'langan va aks sadoli, hodisa va jarayon sifatida o'рганади hamda ularga oid aniq bir amaliy tavsiyalar bera oladi.

Har bir fan mustaqil ravishda «oyoqqa»turishi uchun uning mustaqil o'рганиш yoki tadqiq qilish obyekti, predmeti, o'ziga xos usullari, manbalari va olingan natijalarni tadbiq qilish joylari bo'lishi kerak. Aks holda bu fan, ayniqsa yangisi, mustaqil fan tarmog'i sifatida e'tirof etilmaydi.

*Ekologiyaning obyekti — noevolutsion tarzda rivojlanuvchi tirik organizmlar va ularning atrof tabiiy muhiti.* Agarda organizmlar va ularning atrof tabiiy muhiti evolutsion, ya'ni tabiiy tarzda rivojlanish jarayonini o'tayotgan bo'lsa, u holda ekologik muammolar yuzaga kelmaydi va shuning uchun ham ekologik tadqiqotlarga o'rin qolmaydi. Mazkur obyektlar biologiya, geografiya, geologiya, gidrologiya, okeanografiya kabi fanlarning obyekti bo'lib kelgan. Geografiyadan farqli Eko- logik fanlar tizimiga kiruvchi Geoekologiya (Geografik eko- logiya) uchun o'рганиш obyekti bo'lib geografik qobiq doirasidagi organizmlar va ularning atrof tabiiy muhiti. Biologiyadan farqli ravishda Bioekologiya uchun tadqiqot obyekti bo'lib biosferadagi organizmlar va ularning atrof tabiiy muhiti chiqsasi, Ijtimoiy ekologiyada— kishilar va ular yashaydigan Yer yuzasidagi atrof-muhit bo'la oladi va h.k.

**Ekologiyaning obyekti doimo noevolutsion tarzda rivojlanuvchi, noan'anaviy o'zgaruvchan bo'ladi.** Agarda u noan'anaviy o'zgaruvchan bo'lmasa ekologiya faniga hojat qolmagan bo'lar edi. Nima uchun «noan'anaviy o'zgaruvchan»? Chunki atrof tabiiy muhit noevolutsion tarzda o'зgarmasa, organizm-

lar ham noan'anaviy tarzda o'zgarmaydilar yoki biron-bir organizmning o'zgarishi ikkinchi turdag'i organizmning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bularning hammasi ekologik munosabatlarni yuzaga keltiradi. Noan'anaviy tarzda o'zgarmaydigan muhitda esa ekologik munosabatlар o'rnini tabiiy yoki antropogen munosabatlар egallaydi.

Masalan, to'rtlamchi davrning oxirini geologlar antropogen davr, deb ham ataydilar. Ushbu kichik geologik davrning o'zidayoq katta atrof tabiiy muhit o'zgarishlari sodir bo'ldi. Iqlimning qurib borishi Yer kurrasining shrimoliy yarim pallasida doimiy muzliklarni chekinishiga olib keldi. Yashil o'rmonlar o'rnini dasht va cho'llar egallay boshladi. Juda ko'p biologik massa iste'mol qiladigan yirik hayvonlar (dinozavr, extiozavr kabilalar) o'rnini kamroq oziqlanadigan maydarоq hayvonlar egallay boshladi. Insonlarning paydo bo'lishi esa qulay iqlim sharoitlarida yashovchi barcha «nozik» tabiiy (muhitga itoatgo'y) turdag'i hayvon va o'simliklarni yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ldi. Yovvoyi turdag'i hayvon va o'simliklarning o'rnini madaniylashgan turlari egalladi. Xullas, geologik nuqtayi nazardan kichik bo'lgan 1—5 million yillar mobaynida organizmlar noekologik, *tabiiy — evolutsion tarzda o'zgardi*.

XVIII-XX asrlarga kelib esa jamiyat va tabiatda haqiqiy revolutsion o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu holat albatta ilmiy texnika revolutsiyasining natijasi, deb olimlar tomonidan xulosalanmoqda. Chunki insoniyat bu davrda ilm va fan yutuqlarini, aksariyat hollarda, tabiat ustidan «hukmronligini o'rnatish» uchun xizmat qildirdi. Tabiat va atrof-muhitning hozirgi ekologik holati XXI asrda uning aksini qilishga, ya'ni inson tafakkuri yutuqlarini tabiiy obyektlarni tiklash, saqlash va muhofaza qilishga qaratmoqni taqazo qiladi. Bu esa ekologik munosabatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Insonlarni o'rab turgan atrof-muhit holatini sog'lomlashtirish davr talabidir. Aks holda tabiat, aks sado tariqasida, bizdan o'chini olmasdan qo'ymaydi.

Insonlarning tabiatga nisbatan (xoh u ijobjiy, xoh u salbiy bo'lsin) barcha harakatlari yoki harakatsizliklari atrof tabiiy muhitni *tez o'zgaruvchan* qilib yubormoqda. Ana shu o'zgaruvchanlik xususiyati nafaqat tabiatda, balki tirik organizmlar, xususan insonlarda ham o'z aksini topmoqda.

*Ekologianing predmeti — muayyan bir ekologik tizim (ekotizim)dagi organizmlar o'zaro va ularning atrof tabiiy muhitini*

*bilan bo'ladigan noevolutsion ko'rinishdagi munosabatlar.* Bu yerda ham evolutsion tarzdagi munosabatlar boshqa noekologik fanlar predmetiga kiradi. 1866-yilda E.Gekkel tomonidan fanga olib kirilgan «Ekologiya»ning aynan XIX asr o'ttalarida Mar-kaziy Yevropada yuzaga kelishi ham beziz bo'lmasa kerak. Chunki o'sha davrda sanoat rivojlangan Germaniyaning Sile-ziya va Rur havzalarida tabiat va jamiyat o'rtasidagi mu-vozanatning keskin ravishda buzilishi noevolutsion tarzda ri-vojlanuvchi ekologik obyektlarni yuzaga keltirdi hamda no-evolutsion ko'rinishdagi ekologik munosabatlarni shakllantirdi<sup>1</sup>.

Ekologianing obyekti va predmetiga izoh berishda alohida urg'u berilgan «noevolutsion tarzdagi va ko'rinishda»gi so'z-larning qo'llanishi aslo ilmiy tadqiqotlarni evolutsion tarzda, ya'ni tabiiy rivojlanish tarzdagi yoki ko'rinishdagi joylar va undagi jarayonlarga ekologik nuqtayi nazardan qarash kerak emas, degan fikrni ifodalamaydi. Chunki ekologik muammo bo'limgan joyda ham, uni yo'qligini isbotlash yoki oldini olish maqsadida ekologik tadqiqotlarni o'tkazish mumkin. Yer kur-rasida esa, XXI asrga kelib, ekologik muammolar yetib bor-magan na bir quruqlik va na bir suv havzasi qolmagan bo'lsa kerak.

Ekologik munosabat tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, umumiyligi va shunga o'xshash ko'p qirrali xarakterga (ko'rinishga) ega bo'lishi mumkin. Ushbu xarakterlarga, ya'ni fan predmetiga qarab ekologiya turli fan tarmoqlariga bo'linib ketadi. Masalan, *tabiiy* xarakterda — geoekologiya, bioeko-logiciya, zooekologiya, ixtioekologiya, fitoekologiya va h.k. *Ijti-moiy* xarakterda — ijtimoiy ekologiya, inson ekologiyasi, rekreatsion ekologiya va h.k. *Iqtisodiy* xarakterda — amaliy eko-logiciya, sanoat ekologiyasi, resurslar ekologiyasi, agroekologiya va h.k. *Huquqiy* xarakterda — ekologiya huquqi, xalqaro eko-logiciya huquqi, tabiatni muhofaza qilish huquqi, tabiiy resurs-lardan foydalanish huquqi va h.k. *Siyosiy* xarakterda — politekologiya, xalqaro ekologiya va h.k. *Umumiy* xarakterda — umumiyligi ekologiya, regional ekologiya, kosmik ekologiya va h.k.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha ekologik fan tarmoqlari ham o'zining mustaqil o'rganish obyekti, predmeti, manbalar-i, usullari, tadbiq qilish obyektlariga ega. Ularning mustaqil predmeti — muayyan ekologik tizimdagagi noan'anaviy tarzda

<sup>1</sup> Яблоков А.В., Юсуфов А.Г. Эволюционное учение (дарвинизм). — М.: Высшая школа, 1997.

o'zgaruvchan organizmlar va noan'anaviy tarzda o'zgaruvchan atrof tabiiy muhit o'rtasidagi aniq bir munosabat turidir.

Masalan, ekologiya huquqining predmeti — ekologik huquqiy munosabat, ya'ni insonlar tomonidan tabiatni tiklash, sog'lomlashtirish va muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishda kelib chiqadigan shaxs-jamiyat-davlat o'rtasidagi yuridik xarakterdagi munosabatdir. Lekin keyingi paytda olimlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda yuzaga keldigan ijtimoiy munosabatlarni ekologiya huquqining predmeti emas, balki Suv, Yer, O'rmon kabi huquq sohalarining predmeti qilib ko'rsatmoqdalar. Ammo tabiiy resurslardan kompleks foydalanish huquqini ma'lum bir huquq tarmog'i bilan tartibga solinishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Undan tashqari, ekologik munosabat deganda biz faqatgina insonlarning tabiatni tiklashdagi ijobiy faoliyatlarini tushunmaymiz. Inson yashar ekan, u xohlaydimi yoki yo'qmi, albatta ma'lum bir darajada tabiat obyektlaridan foydalanadi. Bunday foydalanish huquqshunoslikda tabiiy huquqlar toifasiga kiritiladi. Misol uchun, insonlarni atmosfera havosidan nafas olishi va nafas chiqarishi, suv ichishi va tabiat ne'matlarini iste'mol qilishi, yerda yurishi, suvda cho'milishi va h.k. Qarangki, inson tug'ilishi bilan paydo bo'ladigan hamma huquqlar ma'lum darajada atrof tabiiy muhitni ifloslantiradi. Shuning uchun ham Ijtimoiy ekologiyada «tabiat sig'imi», ya'ni Yer kurrasida tabiiy resurs imkoniyatlariga ko'ra, insonlarning sonini me'yorlash muammosi turadi. Undan tashqari, tabiiy resurslardan oqilona va o'ta samaradorlik bilan ilmiy asoslangan tarzda foydalanish atrof tabiiy muhitni buzmasligini Shvetsariya, Yaponiya, Kanada, Finlandiya kabi «ekologiyalashtirilgan mamlakatlar» tajribasida ko'rish mumkin.

Xullas, Ekologiya huquqining predmeti deganda, muayyan bir ekologik tizim(ekotizim)da atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklashdagi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tomonlarini tushunish lozim. Atrof tabiiy muhitni «qayta tiklash», «sog'lomlashtirish», «qayta ishlab chiqarish» kabi uchala iboraning barchasini umumlashtirgan tarzda «muhofaza qilish» degan yagona ibora bilan ifoda etish xato bo'lmaydi, deb o'ylaymiz.

Ekologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishining yana bir talabi o'ziga xos *o'rganish, izlanish va tadqiq qilish*

**usullarini** bo‘lishidadir. Bu usullar boshqa tabiiy, gumanitar yoki ijtimoiy fan sohalarida ham bor, lekin ekologiya o‘zining qonuniyatlaridan, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ularni umumlashtirgan. Ekologik usullar sifatida yagona tizimdagи o‘zgaruvchan organizmlar va o‘zgaruvchan atrof tabiiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishda tizimli yondashish; kuzatish; tajriba (eksperiment) o‘tkazish va modellashtirish amalga oshiriladi.

**Tizimli yondashish usuli** — ekologik munosabatlarni muayyan ekologik obyektlarda uzviy bog‘langanligini inobatga olgan tarzda turli guruhdagi tadqiqot usullarini ma’lum bir ketma-ketlikda olib borish tartibi. Ularga tirik organizmlar va ularni yashash muhitini hisobga olish hamda baholash usuli kiradi. Hisobga olish va baholash tabiiy obyektlarga, organizmlarga, ta’sir etuvchi omillarga nisbatan qaratilgan bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari to‘g‘risidagi qonunga muvofiq butun obyektlar bo‘yicha hujjatlar va ma’lumotlar yig‘iladi hamda tegishli davlat idoralari va boshqaruv organlariga topshiriladi. Undan, haq evaziga, har qanday taskilot yoki biron bir shaxs o‘zining ekologik tadbiri, izlanishi va boshqa hayotiy faoliyatida foydalanish huquqiga egadir. Albatta, har bir tabiiy va ijtimoiy obyektlarni yoki omillarni hisobga olish va baholashning turli xil o‘ziga xos usullari mavjud. Ekologik usulda ular biron-bir ketma-ketlik va yagona tizim asosida olib boriladi. Aks holda kompleks ekologik baholashni va hisobga olishni iloji bo‘lmaydi.


**Kuzatish usuli** — naturada (joyida) yoki masofadan turib (hisobga olingan va baholangan ekologik obyektlarni) ekologik monitoringni olib borish orqali amalga oshiriladi. Biz yuqorida aytib o‘tdikki ekologiya yagona tizimdagи o‘zgaruvchan organizm va atrof tabiiy muhitni obyekt sifatida qabul qiladi. O‘zgaruvchanlik esa ularni maydon, makon va davr mobaynida qay tarzda o‘zgarib turishini kuzatib berish usullarini qo‘llashni talab etadi. Ushbu monitoring ma’lum bir tabiiy obyekt (ob-havo yoki yer) bo‘yicha emas, balki butun tabiiy obyektlar va ekologik omillarni kompleks kuzatish orqali amalga oshiriladi. Bu yerda ham yuqorida aytib o‘tilgan «tizimli yondashuv usuli» kabi komplekslik yoki majmualilik usuli qo‘llaniladi.

**Tajriba (eksperiment) usuli** — laboratoriya, tabiiy hudud yoki tajriba uchastkasida muhitning o‘zgarishini organizmlarga

ta'sir etishini tajriba qilishni bildiradi. Bu usul bizlarga turli xil atrof tabiiy muhit sharoitlarida, ekotizimlarda organizmlar reaksiyasini bilib olish va shunga yarasha optimal holdagi ilmiy asoslangan ekologik chora-tadbirlarni belgilashga yordam beradi. Tajriba usulini qo'llash ham komplekslilik xususiyatga ega. Masalan, tuproqshunoslar uchun tajriba usuli qo'llash orqali tuproqning xossa va xususiyatlari, morfologik va morfometrik ko'rsatkichlari tadqiqot predmeti bo'lsa, ekollar uchun — tuproq muhiti va organizmlar eksperiment obyekti, ular o'rtasidagi munosabat — predmet bo'la oladi. Bunda tuproqning morfologik yoki morfometrik ko'rsatkichlari ekotizimning bir tarkibiy qismi sifatida qaraladi, xolos.

Afsuski, tajriba usulidan ijtimoiy va gumanitar yo'nalishdagi ekologik fanlar deyarli foydalanmaydi. Lekin bu usulni ekologik tadqiqotda qo'llash, foydadan xoli emas. Masalan, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni huquqiy maqomini belgilash yoki ekologik soliq miqdorini o'rnatish, avvalambor, ma'lum bir tajriba hududlarida alohida xususiy maqomda turli xil variantlarda amalga oshirilsa yaxshi bo'lardi. Chunki ular nafaqat mahalliy ekologik sharoit, yana insonlarning iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'sir etish mumkinligini inobatga olish, masalaning ijobiy hal qilishga yordam bergen bo'lardi. Ekologiya bilan iqtisodiy-ijtimoiy hayot uyg'unlashgan, biri ikkinchisini inkor etmaydigan bo'lishi kerak. Hamma narsa, ayniqa huquqda, inson va uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi davlatimizning ijtimoiy siyosatiga mos tushadi. Yaxshi ekologik tajriba oqibati inson hayotiga salbiy ta'sir etsa, bu natijada amalda o'z tadbiqini topishi kerak, degan so'z emas va aksincha. Tajriba usuli bizlarga eng optimal, ya'ni «six ham, kabob ham kuymaydigan» yo'lni aniqlashtiradi. Qonun me'yorlari va qoidalarini tajriba usulariga asoslanmagan tarzda belgilanishi kishilik jamiyatida salbiy huquqiy oqibatlarga olib kelmasligiga hech kim kafolat bo'la olmaydi. Boy berilgan muddat va foydani, ayniqa ekologiyada, qaytarib joyiga qo'yishni iloji bo'lmasligi ham mumkin. Orol va Orol-bo'yida yuzaga kelgan inqirozli holat bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Ekologik izlanishlarni olib borishda ***kichik kosma (mikrokosma)***, ya'ni turli ekologik tizimlarni sun'iy yaratishning tajriba usulidan foydalanilmoqda. Insonlar tomonidan yaratilayotgan sun'iy «Bios-6» (Rossiya Federatsiyasi) va «Bio-



sfera-2» (AQSH) rusumli kameralardan olingen ma'lumotlar juda qiziqarli xulosalarga olib kelmoqda.

Zamonaviy usullardan yana biri — *ekologik modellashtirishdir*. Model — organizmlar va atrof tabiiy muhit o'zgarishlarini matematik tarzda ifoda etish. Ushbu imitatsion usul juda katta jarayonlarni kichik muddatda kompyuter — informatik texnologiyalarni qo'llash orqali sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Ekologik tizimlar harakatini son jihatdan baholash uchun yaratilgan o'nlab usullari (neyron shoxobchalari yoki ko'p omilli nazariy apparat dasturlari) ekologik monitoringni olib borish va istiqbolli ekologik dasturlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Ekologik o'rganish, tadqiq qilish va izlanishlardan olingen natijalarni aniq bir xalq xo'jaligi sohasiga yoki muayyan davlat va jamiyatga tadbiq qilish mumkin. Chunki inson, jamiyat, davlat va xalqaro hamjamiatning asosiy maqsadi — farovonlikka erishish. Farovonlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri — ekologik xavfsizlik yoki uning barqarorligi. U nafaqat inson farovonligi, balki milliy va xalqaro xavfsizlikning asosiy elementlaridan hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (T.: O'zbekiston, 1997) degan asarida «Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir», deb uqtirgan edi (112-bet).

Bu o'rinda misol tariqasida yana bir bor Geoekologiyani olsak bo'ladi. Geoekologiya fani orqali yaratilgan Toshkent viloyatinining Ohangaron daryosi o'rta oqimidagi landshaftlar barqarorligini ta'minlash kartasi va tadbirlar majmuasi mazkur hududlardagi ekologik tadbirlarni rejalashtirishga va unlarni amaliyotga tadbiq qilishga olib kelmoqda.

*Ekologiyaning maqsadi* hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash. Ekologik xavfsiz muhit organizmlarning normal (barqaror) holatda ko'payishi, o'sishi va rivojlanishi uchun toza, sog'lom va qulay atrof tabiiy muhit holati demakdir. Ushbu maqsad quyidagi *vazifalarini* bajarishni talab etadi:

✓ planetamiz resurslari va atrof tabiiy muhit holatini diagnostika qilish, ya'ni hisobga olish va baholash;

- ✓ lokal (mahalliy), regional (mintaqaviy), global (kurraviy) miqyosda ekologik monitoringni olib borish;
- ✓ davlat, davlatlar va xalqaro hamjamiyat tomonidan ekologik nazoratni tashkil etish va ularni ishlash mexanizmini yaratish. Bir paytning o'zida nodavlat tashkilotlari, kishilar va jamoat nazoratini o'rnatish va ularni tavsiya kuchidagi ma'lumotlaridan ekologik boshqaruvda keng foydalanish;
- ✓ global miqyosda organizmlar va atrof tabiiy muhit holatiga salbiy ta'sir etuvchi inson faoliyatini qattiq nazorat ostiga olish, me'yordan oshgan tarzda uni keskin to'xtatish choralarini qo'llash;
- ✓ istiqbolga yo'naltirilgan ekologik reja va dasturlarni mamlakat, qit'a va Yer kurrami bo'yicha ishlab chiqish, qabul qilish hamda uning tadbiq qilinishiga katta e'tibor berish;
- ✓ ekologik huquqbuzarliklar va ularning javobgarligini belgilovchi lokal, regional va universal ixtisoslashgan sud tizimi, prokuratura va tergov organlarini yaratish;
- ✓ mahalliy, regional va global miqyosda faoliyat yurituvchi «Ekologik tez yordam» guruhini yaratish. Ekologik jamg'armalar faoliyatini faollashtirish;
- ✓ davlat boshqaruvida va xalqaro hamkorlikda demokratik elementlarni (xalq hokimiyatiga asoslangan), ekologik munosabatlarni tartibga solishda keng joriy qilish;
- ✓ ekologik tanglikdagi quruqlik hududlari (Orolbo'yi, Chernobil, Markaziy Afrika) va suv akvatoriyalarini (Orol dengizi, Balxash va Chad ko'llari) insonlarning birgalikdagi harakatlari orqali hal qilish;
- ✓ ekologik terrorizmni oldini olish yo'llarini ishlab chiqish va ishlash mexanizmini yaratish;
- ✓ ekologik turizm orqali atrof tabiiy muhit holatini saqlab qolish;
- ✓ tabiat va jamiyat o'rtasida ekologik, ekologik iqtisodiy munosabat shakilarini o'rnatish va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, Ekologiya bu muayyan ekologik tizimdagи noevolutsion tarzda rivojlanuvchi organizmlar va ularning atrof tabiiy muhti o'rtasidagi o'zaro munosabat qoida va qonuniyatlarni turli jihatdan tadqiq qiluvchi fan sohasi, unga doir bilimlarni beruvchi o'quv predmeti va ushbu masalalarni yechimini topa oladigan inson xo'jalik faoliyatining bir sohasidir.

Tabiat — bu ajododdardan qolgan meros emas, balki avlodlardan qarzga olingan boylikdir.

*Barqaror rivojlanish konsepsiyasidan*

## EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA BARQAROR RIVOJLANISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida, — «Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolarni anglab yetayapmizmi? Xavfsizlikka tahdid solib turgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz?... *biz istiqomat qilayotgan mintaqada jo'g'rofij-siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo'la oladi? Xavfsizlikni qanday saqlab qolish mumkin?*»,<sup>1</sup> — degan savollar barcha o'zbek xalqining dolzarb muammolari sifatida kun tartibiga qo'yilgan.

Ekologik xavfsizlik nima? Mintaqadagi jo'g'rofik, aniqrog'i, geografik muvozanatni qanday tushunmoq lozim va xavfsizlikni qanday qilib ta'minlash kerak bo'ladi?

*Xavfsizlik* L.Yu. Xotunsevning fikricha<sup>2</sup> — *alohida shaxs, jamiyat va tabiat obyektlarini kuchli darajadagi xavf-xatardan himoyalanganlik darjasini bo'lib, uning asosiy mezoni kelajakda yoki hozirda sodir bo'luvchi tabiiy yoki ijtimoiy xatardan kelib chiquvchi qo'rquv hissidir.*

Bu tushunchaga T. Aroshidze<sup>3</sup>, xavfsizlik keng ma'noda *hayot, salomatlik, insoniyatning asosiy huquqlari, hayotiy manfaatlarini ta'minlovchi manbalar, ijtimoiy tartibdag'i resurslar bilan bog'liq xavflarga chidamlilik* darajasidir, deb ta'rif beradi. V.N.Burkov, A.V.Shevkinlarning fikricha<sup>4</sup> xavfsizlik nazariyası zamonaviy, o'zaro tartibli fan yo'naliishi bo'lib, *insoniyat, jamiyat, davlatni hayotiy zarur manfaatlarini texnogen va tabiiy favqulodda xolatlardan himoyalanganlik* darajasidir.

<sup>1</sup> I. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O'zbekiston, 1997.

<sup>2</sup> Хотунцев Л.Ю. Экология и экологическая безопасность. — М.: Akademiya, 2002.

<sup>3</sup> Арошидзе Т.Т. Экологическая безопасность и международное сотрудничество.

<sup>4</sup> Бурков В.Н., Щепкин А.В. Экологическая безопасность. — М.: ИПУ РАН, 2003.

*Bizning fikrimizcha, xavfsizlik* keng ma'noli tushuncha bo'lib, *birinchidan*, u nafaqat inson (shaxs emas, chunki u yuridik kategoriyaga tegishlidir), jamiyat va davlat, balki tabiat va uning elementlari nuqtayi nazaridan ham qaralishi mumkin. Chunki ekologiya nafaqat insonlar, balki barcha tirik organizmlar o'rtasidagi va ularning atrof tabiiy muhiti bilan bo'ladigan munosabatlarni o'rganishini, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Vaholanki, xavfsizlik tushunchasi «bexatar yashash darajasi»ni ifoda etar ekan, u ma'lum ma'noda har qanday organizmlar, ya'ni tabiat unsurlarining ham bexatar yashashi nuqtayi nazaridan qaralishi lozim. Negaki hozirgi kunga kelib muayyan tabiat unsurlarini bexatar yashashi bevosita yoki bilvosita tarzda insoniyatga bog'liq bo'lib qoldi. Tabiat unsurlarining o'zaro aloqasi natijasida yuzaga keluvchi har qanday jarayon yoki hodisa tabiiy jarayon hisoblanib, tabiatdagi muayyan tabiiy tanlanish bosqichida bo'ladi. Ammo, tabiatdagi ayrim jarayonlar, masalan, chigirkalarining son jihatdan ko'payib ketishi va ularning o'simlik dunyosi bilan bo'ladigan munosabatlari, albatta, inson xavfsizligiga ta'sir etadi. Bu ilgari (insoniyatning tabiatga ta'siri kam yoki deyarli bo'limgan vaqtarda) ham uchrab turgan tabiiy jarayon hisoblanib, ozuqa maydonini insoniyat tomonidan qisqarishi evaziga tezlashdi. Tabiatning esa insondan xavfliroq unsuri yo'q. Umumiyligi nuqtayi nazardan qaraganda barcha tirik organizmlarning turli xavaf-xatardan saqlanganlik darajasini ifoda etish maqsadga muvofiqdir.

*Ikkinchidan, xavfsizlik* nafaqat texnogen yoki tabiiy *favqu-lotda holatlar va jarayonlardan organizmlarning saqlanganlik darajasi*, balki u ko'zga ko'rinxmas hamda bilvosita ta'sir etuvchi hodisa va jarayonlar orqali yuzaga kelishi ham mumkin. Masalan, issiqxona samarasи tufayli iqlimning sekin-astalik bilan isib borishi va uning natijasida cho'llanish jarayonini yuzaga kelishi. Oqibatda cho'llangan yerlarda o'simlik va hayvonot dunyosining tur va xil jihatdan kamayishi, ya'ni biologik xilma-xillikni degradatsiyalashuvi hamda insonlar uchun noqulay ekologik sharoitlarni yuzaga kelishi. Albatta, bunday xavfsizlik ekologik xarakterdagi xavfsizlikka kiradi. Lekin u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va shu kabi xarakterlarga ega ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun biz «xavfsizlik» tushunchasini alohida ibora sifatida ma'lum bir fanda ishlatish o'rni emas, deb hisoblaymiz. Xavfsizlik

xarakteriga qarab uni qo'shimcha, to'ldiruvchi va aniqlovchi so'z yoki so'z birikmalari bilan ishlatalishi maqsadga muvofiq.

*Ekologik xavfsizlik* tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha izohlanadi. Ularning ayimlarida tushuncha mohiyati to'liq olib berilsa, ayimlarida munozaraga sabab bo'lувчи fikrlar ham uchraydi. Masalan, N.F. Reymers<sup>1</sup> ekologik xavfsizlikka ikki xil yondashgan: 1) tabiat obyektlari, alohida inson va insoniyatning bevosita yoki bilvosita hayotiy muhim elementlarini zararlanishlariga (yoki bu zararlanishdan keladigan xavflarga) olib kelmaydigan faoliyat, vaziyat va jarayonlar uyg'unligi; 2) Yer shari va uning turli mintaqalarida insoniyatning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, texnogen va siyosiy tayyorgarligi (jiddiy bo'lмаган talafotlarga moslashishi) darajasida ekologik muvozanatni ta'minlovchi vaziyat, jarayon va faoliyatlar majmuasi.

T.Tillyayev<sup>2</sup> esa *ekologik xavfsizlik* — shaxs, aholi, sanoat va tabiat obyektlarini tashqi ta'sirdan himoyalanganlik darajasidir, deb izohlaydi. Lekin muallif ekologiyaning obyekti nafaqat inson, balki barcha tirik organizmlar bo'lishi mumkinligini inobatga olmagan. U ekologik xavfsizlikning mahalliy, milliy, regional va kurraviy miqyosda, ya'ni hududiylilik xususiyatiga hain o'z e'tiborini qaratmagan. Bulardan tashqari, ekologik xavfsizlik turg'un holatdagi, o'zgarmaydigan daraja emas. U doimo harakatda va o'zgaruvchandir.

Bizning fikrimizcha *ekologik xavfsizlik* — organizmlar va ularning yashash muhitini tabiiy va antropogen omillar ta'siri tufayli turli miqyosda va tezlikda yuzaga keluvchi salbiy xolatlardan saqlanganlik darajasi. Mazkur tushunchada ham ekologiyaga (organizmlar va ularning yashashi muhiti), ham xavfsizlikka (salbiy holatlardan saqlanganlik darajasi) tegishli bo'lgan iboralar ifoda etilgan.

*Barqaror rivojlanish* — *shaxs va jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modeli*. Sayyoramizda yuzaga kelgan vaziyat ekologik muammolarni kishilik jamiyatining barcha jihatlari bilan kompleks ravishda hal etishning yangi yo'llarini izlab topishga undamoqda. Barqaror rivojlanishning zamонавиy konsepsiysi atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan

<sup>1</sup> Реймерс. Н.Ф. Природопользование. Словарь-справочник. — М.: Мысль, 1990.

<sup>2</sup> Тилляев. Т. «Охрана природы или экологическая безопасность? <http://armon.freenet.uz/rus/bulletin/4/01.html>.

samarali foydalanishni ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan birgalikda hal etishga chaqiradi. Mahalliy, milliy, mintaqaviy va global miqyosdagi boshqaruv — xo'jalik faoliyatini takomillashtirishni nazarda tutadi. Unda har bir rahbar, uyushma, fuqaro va qolaversa, Sayyoramizning barcha kishisidan Yerda-gi hayotni saqlab qolishdagi rolini ko'rsatib beradi.

Yevroosiyo qit'asida mustaqil davlatlarning «oyoqqa turi-shida» ularga bir qator salbiy oqibatlar xalaqit bermoqda. *Birinchidan* — iqtisodiyot nazariyasi qonuniyatlariga muvofiq, jamiyatda siyosiy iqlimning keskin o'zgarishi noqulay ijtimoiy-iqtisodiy talafotlar bilan bir qatorda noqulay ekologik sharo-itlarni yuzaga keltiradi. Nufuzli YUNESKO tashkilotining so-biq bosh kotibi Frederik Mayorning fikricha, «Kishilar va tabiat o'rtasidagi iqtisodiy munosabat shakli ekologik beqarorlikni keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida barqaror bo'lma-gan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga olib keladi».


Agar biz Siz bilan sobiq Ittifoqning qayta qurish davridan (1985-yildan) to xozirgi kungacha bo'lgan eng yangi tarixni tahlil qiladigan bo'lsak, XX asr 90-yillarga kelib yangi tarkib topgan davatlarda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni qo'llab-quvatlash va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida yangi Yevropa rivojlanish banki (YERB), Osiyo rivojlanish banki (ORB)ning regional bo'linmalari kabi xalqaro tashkilot-lar yuzaga kela boshlaganligini ko'rish mumkin. Ushbu banklar o'z faoliyatini huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, terrorizm, ekstremizm, diniy fanatizmni oldini olish kabi barqarorlikni susaytiruvchi salbiy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarni hamda ekologik muammolarni chuqurlashtiruvchi tabiiy resurslardan foydalanishning eksten-siv usullarini qo'llashni bartaraf etish va yo'qotishni moliyaviy jihatdan ta'minlashga qaratmoqda. Sayyoramizda yuzaga kela-yotgan ijtimoiy-iqtisodiy mutanosiblik xalqaro terrorizm, etnik to'qnashuv, shovinizm, ekstremizm va global miqyosda ekolo-gik muvozanatni buzilishiga olib kelmoqda. Mazkur global muammolar turli darajadagi va toifadagi sammit, konferensiya, simpozium kabi xalqaro anjumanlarda muhokama qilin-moqda, ularning qabul qilgan qarorlarida barqaror rivojlanish-ning strategiyasi va taktikasiga doir rejalar va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Aksariyat davlatlar boshliqlari, siyosiy harakatlar rahbarlari va jamoat arboblari Sayyoramizdagi barcha davlat-larning barqaror rivojlanishini ta'minlamay turib xalqaro ham-

jamiyatning tinch-totuv yashashi, ertangi kuniga ishonch ko‘zi bilan qarashi imkoniyatini yo‘qligini uqtirmoqdalar.

«Barqaror rivojlanish» nimaligini biz uning tarixidan boshlaymiz (3-rasm). Mazkur konsepsiyasini yaratilish tarixiga chuqur nazar tashlaydigan bo‘lsak, u aynan xalqaro hamjamiatning atof-muhitni muhofaza qilishga oid harakatlaridan boshlanganligiga iqror bo‘lamiz.

XX asrning 60-yillarida, ya’ni «sovuj urush» ayni avjiga chiqqan davrida, butun insoniyat va xalqaro hamjamiatning diqqat e’tibori asosan yadroviy to‘qnashuvni oldini olishga qaratilgan edi. «Karib inqirozi» deb nom olgan SSSR va AQSH o‘rtasidagi mojaradan so‘ng yadro quroliga ega bo‘lgan «katta davlatlar» bir narsaga — atom, neytron, vodorod qurollarini oz miqdorda bo‘lsa ham ishlatilishi nafaqat dushmanqa, balki o‘zining uyini ham barbod bo‘lishiga olib kelishi mumkinligiga iqror bo‘lishdi. Ommaviy qirg‘in keltiruvchi qurollarni qo‘llanishi va uchinchi jahon urushini boshlanishi Yerdagi hayotni tugashi ekanligini butun hamma insoniyat tushinib yetdi. Bu urushda na mag‘lublar va na g‘oliblarning bo‘imasligi isbot talab qilmaydigan aksiomaga aylanib qoldi. Global miqyosdagi yana bir muammolardan bo‘lmish — yoppasiga tarqalgan kasalliklar fan va texnika yutuqlari tufayli sekin va astalik bilan orqaga chekina boshladi.

Ammo, aynan fan va texnikaning jadal sur’atlarda rivojlanishi hamda insonlarning talab darajasining o‘sishi boshqa global muammoni yuzaga keltirdi. Bu muammo «sovuj urush»dan yoki vabo kabi kasalliklardan farqli ko‘zga ko‘rinmaydigan, aksariyat hollarda yashirin tarzda kechadigan, lekin oqibati atom bombasidan ham xavfliroq — *ekologik muammo* edi. Chunki XX asrning 70-yillariga kelib insoniyat o‘zining nisbatan qisqa (besh million yillik) tarixiy bosqichi davomida Yer kurrasidagi o‘rmonlarning 3/2 qismini kesib, 6 mldr. ga unumdar tuproqlarni qishloq xo‘jalik oborotidan chiqazib, kuniga biron-bir turdagи hayvonot yoki o‘simlik dunyosi yo‘qotib yuborayotgan, 70 foizdan ortiq suv manbalarini ifoslantirib, atmosfera havosida esa is gazi miqdorini 20 mln. tonnaga oshirib, ozon tuynugini AQSHdekkatta mamlakat yer maydoniga teng bo‘lgan kenglikda ochib qo‘ygan edi. Natijada, odamlar orasida yangi turdagи — allergiya, SPID (VICH), yuqumli va surunkali o‘pka yo‘li rak kasalliklarini yuzaga kelishiga olib keldi. Tug‘ilayotgan nozik bolalarda mu-



tanlik xususiyatlari, ya'ni normal(tipik) insonlarga xos bo'lma-gan qulqoq va burunlarning turli shaklda bo'lishi, qo'shaloq chaqaloqlarning tug'ilishi, o'pka qo'shaloqligi, sochsizlik, yuz qiyshiqligi, qing'ir-qiyshiq qo'l va oyoqli bolalarning tug'ilishi tabiiy holga aylanib qoldi.

Inson aql-zakovatining yuqori pog'onasiga ko'tarilgan bir davrda bunday ayanchli holat uni jiddiy tashvishga tushirib qo'ysi. Ularning sababi atrof tabiiy muhitning inqirozli holati ekanligini tushinib yetgan bir guruh fan, madaniyat, maorif va davlat arboblaridan iborat bo'lgan kishilar yuzaga kelgan salbiy ekologik oqibatdan chiqib ketishni ishlab chiqish maqsadida «Rim klub»ni tuzishdi. Rim klub a'zolarining 1970-yilda «O'sish chegarasi» degan kitobi, faoliyat hisoboti tariqasida, juda ko'p adadda va tillarda chop etildi. Unda zamonomamizning ko'zga ko'ringan kishilar Yer kurrasidagi aholining o'sishini tabiiy resurslar imkoniyatiga monand ravishda mo'tadillashtirishni taklif etishdi. Ular geometrik ravishda ko'payayotgan Yer yuzi aholisini arifmetik ravishda ko'payayotgan tabiiy boylik-larning resurs imkoniyatlari «ko'tara olmasligi»ni ular xalqaro hamjamiyatga uqtirishmoqchi edilar. Darhaqiqat ekologik muammolar aholi zinch yashaydigan, yetarli darajada iqtisodiy rivojlanmagan yoki avtoritar va totalitar boshqaruvni demokratik prinsiplardan ustun qo'yadigan mamlakatlarda inqirozli darajada tus oldi. Afsuski, ushbu mamlakatlardagi ekologik falokatlar nafaqat ularning o'zlariga, balki nisbatan boy va xavfsiz bo'lgan qo'shnilariga, hattoki butun Yer yuzasiga global miqyosda o'z salbiy oqibatlarini o'tkaza boshladi. Bunday «chegara bilmaydigan» ekologik muammolar butun insoniyatni va ayniqla, progressiv hamjamiyatni zarbaga keltirdi. Mazkur turdag'i ekologik muammolarga misol qilib Orol dengizining qurishi, Chernobil AESsining falokatga uchrashi, Sahroyi Kabirdagi cho'llanish jarayonlarining kuchayishi kabi ekologik inqirozli holatlarni olsak bo'ladi. Ular nafaqat Ukraina, Mar-kaziy Osiyo yoki Shimoliy Afrika mamlakatlariga, balki barcha insoniyatga o'z zararli ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Chunki ekologik tusdag'i jarayon va hodisalar na davlat chegarasiga, va na tabiiy chegaralarga bo'ysinadi. Har bir mahalliy tusdag'i ekologik talafot milliy, milliy esa regional tusdag'i falokatga va u o'z navbatida global tusdag'i inqirozga aylanib bormoqda.

«Rim klub»ning hisoboti 1972-yilning 5-iyunida Shvetsiya poytaxti Stokholm shahrida Butunjahon «Atrof-muhitni muho-

*faza qilish»* Konferensiyanini chaqirishga asos bo'lib qoldi. Mazkur konferensiyanı, hech mubolag'asiz, xalqaro hamjamiyatning ekologik dunyoqarashidagi tub burilish nuqtasi, deyish mumkin. Chunki insoniyat tarixida ilk bor BMTning juda keng qamrovli va salohiyatli maxsus anjumani Yer sayyorasidagi ekologik muammolarni hal qilishga bag'ishlangan edi. Aynan Stokgolm Konferensiyanidan boshlab davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari alohida baxs va muzokaralar mavzuiga aylanib qoldi. Endilikda ekologik muammolarning yechimini topish global miqyosdagi xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligini hamma tushinib yetgan edi.

Stokgolm Konferensiyanida beshta muhim qaror va hujjatlar qabul qilindi, masalan:

1) «*Stokgolm deklaratsiyasi»*da atrof-muhitni milliy, regional va xalqaro miqyosda muhofaza qilishning 26ta prinsipi ko'rsatildi. Ulardan biri «Har bir inson qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqiga ega, uning sifati esa insonlarni munosib hayot kechirishga va taraqqiyotga erishadigan darajada bo'lishi kerak». Deklaratsiya mezonzlari bandlarining birida, butunjahon hamjamiyatining atrof muhit muammolariga nisbatan ifodalovchi munosabatlarida: «*Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish atrof-muhitni yaxshilash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega»,* deb aytilgan edi. Ushbu prinsip atrof-muhit sifatini saqlash uchun fan va texnika taraqqiyoti o'sishini cheklashni talab qiluvchi konsepsiyasiga qarama-qarshi aytilgan fikrdir.

2) «*Tadbirlar rejasi»* 109 banddan iborat bo'lib, unda davlatlar va xalqaro hamjamiyat o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilishning tashkiliy, siyosiy, iqtisodiy masalalari yoritilgan hamda davlatlararo munosabatlar va xalqaro tashkilotlar rolini ko'tarishga alohida e'tibor qaratilgan.

3) Stokgolm Konferensiysi tavsiyanomasiga binoan BMTning Bosh assambleyası *Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi — YUNEP* tashkilotini tuzdi. Universal xalqaro tashkilotning qarorgohi birinchi bor Afrika qit'asida, ya'ni Keniya poytaxti Nairobi shahrida joylashtirildi.

4) Konferensiyaning ochilish kuni (5-iyun) har yili dunyoda *Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni* sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

5) Stokgolm konferensiysi qarori bilan *Butujahon atrof-muhitni muhofaza qilish jamg'armasi* tashkil etildi. Jamg'ar-

maga BMTga a'zo barcha davlatlar badal to'lovlarini to'lab turish majburiyati yuklandi.

1975-yili avgust oyida Xelsinki shahrida 35 ta Yevropa davlatlari hamda AQSH va Kanada ishtirokida o'tgan Yevropa xavfsizlik va hamkorlik Kengashi (OBSE)da «*Yakunlovchi hujjat*» qabul qilindi. Mazkur hujjatda butunjahon bo'yicha ekologik xavfsizlikni ta'minlanish ham milliy, ham global miqyosdagi masala qilib ko'rsatilgan edi.

OBSEga a'zo davlatlar vakillarining 1986-yil Vena shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvidagi «*Yakuniy hujjat*»da Xelsinki uchrashuvidagi kelishilgan majburiyatlar va davlatlarning barqaror rivojlanishi o'rtaсидagi uzviy aloqadorlik borligi ta'kidlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlik va ekologik barqarorlik bo'linmas yagona tizimda mavjud ekanligi, har qanday muammo ularsiz hal etilishi mumkin emasligi ayon bo'la boshladi..

Odamlarning taffakkuri, ongi va madaniyatining o'sishi barqaror rivojlanish g'oyasini juda ko'p shakl va mohiyat ko'rinishida namoyon qildi. Endilikda u ijobiy tarafga qarab mukammallashayapti. Yevropada Rim imperiyasi, Markaziy Osiyoda Amir Temur boshqargan davrda barqaror rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi imperiyalarning harbiy kuchi, ularning ta'sir etish doirasini hisoblanar edi. XIX — XX asrlarga kelib ushbu indikator sanoat ishlab chiqarish darajasi bilan belgilanadigan bo'ldi. Ikkinchи jahon urushi oqibatlari barqaror rivojlanish aynan butun dunyo hamjamiyatining tinch-totuv yashashi orqali amalga oshishi mumkinligini uqtirdi.

«Sovuq urush» davrida, ya'ni XX asrning 50—70-yillarida barqarorlik ko'rsatkichi deb davlatlarning yadro quvvati hisoblanar edi. Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri Margaret Tetcher o'zining televizion chiqishlarining birida «sotsialistik va kapitalistik lagerda aynan yadro quroqlga egalik qilish uchinchи jahon urishini oldini olmoqda; aynan ularning pariteti dunyoviy hamjamiyatlarning tinch va stabil rivojiga hizmat qiladi», deb aytgan edi.

Faqatgina XX asrning 70-yillariga kelib odamzod hukmron mamlakatlarning qurollanish poygasi va gegimonlik prinsiplari terrorizm, shovinizm va diniy ekstremizmni kuchaytiradi, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va ayniqsa, ekologik siyosatda salbiy ko'rsatkichlarga olib kelishi mumkin ekanligiga tushinib yeta boshlashdi. Insoniyatning jiddiy muammolarini hal etilishi va barqaror rivojlanishi uchun dunyo hamjamiyatining

yangicha dunyoqarashga, ya'ni konsepsiyaga o'tish zaruriyatini talab etdi.

Dunyo hamjamiyatining yangi *barqaror rivojlanish konsepsiysi* birinchi marotaba 1987-yil BMTning Butunjahon atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Komissiyasi tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur Komissiya o'zining Gro Xarlem Brundtland ma'rzasasi degan nomini olgan «*Bizning umumiy kelajagimiz*», ma'rzasida, hozirgi avlod odamlarni hayotiy ehtiyojlari qondirilishini kelasi avlodning munosib hayotga bo'lgan huquqini hisobga olib, dunyo hamjamiyatining barqaror rivojlanish konsepsiyasini modelini yaratdi.

BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil dekabr oyidagi 44/428сонли rezolutsiyasida barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish maqsadida BMTning maxsus konferensiyasini chaqirish to'g'risidagi qaror qabul qilindi va uni alohida mavzu tariqasida ko'rib chiqamiz.

**Barqaror rivojlanish konsepsiyasi** — bir me'yorda (stabil) rivojlangan davlatlar va butun dunyo hamjamiyatining xususiyat, mohiyat va tarkibiy qarashlar tizimidir.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqarish va iste'mol qilish, aholining o'sishi va ijtimoiy himoyasi o'rtasidagi muvozanatni rivojlangan va rivojlanish yo'lida turgan barcha davlatlarda saqlashni hisobga oladi. Chunki Yer sayyorasidagi atrof-muhit holati ularning birligidagi harakat majmuasidir. Ekologik muammolarning yechimi biron bir davlat (masalan, AQSH) yoki biron bir davlatlar (masalan, «katta sakkizlik») faoliyatiga bevosita bog'liq emas ekanligini biz yuqorida aytib o'tgan edik. Bu o'rinda yana bir bor Orol va Orolbo'yи muammosiga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasi 48, 50 va 55-sessiyalaridagi ma'rzasida aytib o'tilganidek, ushbu muammo nafaqat O'rta Osiyo davlatlarning, balki butun dunyo hamjamiyatining «chuqur tabiiy dardidir», chunki Orol inqirozi kurreyi zaminda ekologik xavfsizlikni keskinlatadi va shuning uchun ham global xarakterga ega. Prezidentimiz barcha davlat rahbarlarini, mahalliy va xalqaro tashkilotlarni Orol muammosini hal qilishga yordam berishga chaqirdi va aks holda ekologik inqiroz oqibatini oldini olish mumkin emasligini, ta'kidlab o'tdi.

BMTning Rio-de-Janeyrodagi konferensiyasida qabul qilingan «Atrof-muhit muhofazasi va rivojlanishga doir deklarat-

siya»da — «Inson haqida g‘amxo‘rlik — barqaror rivojlanish faoliyatini ta’minlashning markaziy bo‘g‘inidir. Odamlar sog‘lom yashash va tabiat bilan uyg‘unlashish orqali unumli mehnat qilish huquqiga egadirlar», — deb aytilgan edi.

Yangi barqaror rivojlanish konsepsiyasida Inson va tabiatning garmonik (uyg‘unlikda) rivojlanishi uchun quidagi asosiy qoidalar nazarda tutilgan:

- \* davlatlarning tabiiy resurslardan foydalanishdagi suveren huquqi boshqa, milliy yurisdiksiyäsining chegaradan tashqarisida bo‘lgan davlatlar va mintaqalarning atrof-muhitiga zarar qilmasligi kerak. Mazkur qoida 1945-yilda qabul qilingan BMTning Nizomiga to‘la muvofiq keladi;

- \* davlatlar yoki alohida bir transkontinental kompaniyalarning rivojlanish huquqi hozirgi va kelajak avlodlarning atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ehtiyojlarini adekvat darajada qondirishi lozim;

- \* barqaror rivojlanishda atrof-muhit muhofazasi taraqqiyot jarayonining bir qismi hisoblanadi va undan ajralgan tarzda muhokama qilinmasligi kerak;

- \* rivojlanayotgan va o‘tish davri iqtisodiyotida turgan davlatlarda ekologik muammolarni birlamchi masalalar turkumiga kirgizish lozim, shuning uchun ham ularda tabiiy resurslarni konservatsiya qiluvchi (saqlovchi) ho‘jalik tarmoqlarini rivojlantirmoq zarur;

- \* davlatlar Yer ekotizimlarini saqlash, muhofaza qilish hamda uning tozaligi va butunligini tiklash maqsadida global miqyosdagi sherikchilik ruhida hamkorlik qilishlari lozim;

- \* har bir davlat atrof-muhit holati uchun javobgardir;

- \* rivojlangan mamlakatlar xalqaro doirada barqaror rivojlanishni ta’minlashda mas’uldirlar, mazkur davlatlar jamoasi Yer sayyorasining muhitiga yetkazgan zararini ulardagagi texnologik va moliyaviy resurslardan kelib chiqqan holdagi javobgarligini tan olmoqlari lozim;

- \* tabiiy resurslarning iste’mol qilishini mo‘tadillashtirish maqsadida davlatlar o‘z demografik siyosatlarini muvofiqlashtirishlari zarur;

- \* tabiiy xomashyonini ishlab chiqarish, qazib olish va qayta ishslash ilmiy jihatdan aoslangan bo‘lishi va ushbu jarayonlarda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash lozim;

- \* ekologik muammolarni barcha manfaatdor fuqarolarning ishtirokida va turli darajada: milliy miqyosda — har bir fuqaro

atrof-muhitga tegishli bo'lgan ma'lumotlardan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lishlari; davlatlar esa bunday masalalarni hal etishda keng ma'lumotlar berish yo'lini rivojlantirishlari va qo'llab-quvvatlashlari zarur; ekologik zararlarni qoplashda sud orqali himoyalanish vositalarini qo'llash va ma'muriyat ishlarini ularda ko'rib chiqishni ta'minlash;

✓ davlatlar atrof-muhit muhofazasiga doir qonun hujjatlariга, ekologik qat'iy o'rnatilgan me'yorlarga (standartlarga) ega bo'lmoqlari lozim, xo'jalik faoliyatining maqsadi va ustuvorligi atrof-muhitni muhofaza qilish vazifalariga muvofiq kelishi kerak;

✓ davlatlar maqbul va ochiq xalqaro ekologik tizimni tashkil qilishda hamkorlik qilishlari kerak, bu esa atrof-muhit holatiga doir muammolarni yanada ham samarali hal qilishga olib kelishi lozim;

✓ savdo siyosati sohasida atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ko'rileyotgan choralar ihtiroyi yoki asossiz ravishda diskriminatsiya qilish yoki xalqaro savdoning yashirin cheklash vositasi bo'lmasligi lozim;

✓ atrof-muhit muhofazasiga yo'naltirilgan chegaralararo yoki global ekologik muammolarning yechish yo'llari xalqaro konsensus(murosaga)ga asoslangan bo'lishi kerak;

✓ milliy qonunlar davlatlarda ham, ularning tashqarisida ham tabiiy muhitga yetkazilgan zararni qoplashni hisobga olmog'i lozim;

✓ davlatlar atrof tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi muddalar ning harakatlanishi va tashilishini oldini olish uchun samarali ravishda hamkorlik qilishlari kerak;

✓ davlat hokimiyyati va boshqaruv organlari ekologik xaratlarni ifloslanish bilan bog'liq bo'lgan ekologik vositalardan foydalanishni baynalmilallashtirish orqali rejalashtirishlari lozim;

✓ ekologik oqibatlarni baholash vakolatli milliy organlar tomonidan tasdiqlanishi kerak;

✓ davlatlar, xalqaro miqyosda yordam berish maqsadida, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi har qanday ofat yoki boshqa favqulodda vaziyat haqida darhol o'zga mamlakatga axborot yetkazishlari kerak;

✓ ayollar atrof-muhit unsurlaridan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishda hayotiy muhim rol o'ynaydilar, shuning

uchun ham ularning turli ekologik tadbirdarda har tomonloma ishtirokclarini ta'minlash zarur;

✓ davlatlar yoshlarning buniyodkorlik qobiliyatlarini, istiqbolli maqsadlarini va jasurliklarini ekologik muammolarni hal etishda jalg qilmog'i kerak;

✓ davlatlar atrof-muhitga bo'lgan an'anaviy munosabatlarini tan olishlari kerak, mahalliy aholi va uning jamoalarining tarihiy tajribasini ishlatmog'i lozim;

✓ davlatlar urushlarni (qurolli to'qnashuvlarni), ekotizimlarning bir butunligining parchalanishini oldini oluvchi xalqaro huquqiy me'yorlarni hurmat qilmog'i kerak;

✓ tinchlik, rivojlanish va atrof muhitni muhofaza qilish o'zaro bog'langan va ajralmasdir;

✓ davlatlar ekologiya sohasidagi nizolarni va masalalarni tinch yo'l bilan, tegishli vositalar yordamida BMT Nizomiga muvofiq ravishda hal qilmog'i kerak;

✓ davlatlar, xalqlarni barqaror rivojlanishi uchun, ekologik talablarini bajarishda yaxshi niyat va sherikchilik ruhida hamkorlik qilishga majburdir.

Barqaror rivojlanish konsepsiysi, yuqorida keltirilgan atrof-muhitni muhofaza qilishga oid prinsip-qoidalar tufayli, xalqaro huquq talablariga to'la javob beradi, u jamiyat va tabiat uyg'unligini oshiradi. Ushbu ekologik prinsip-qoidalarga rioya qilish, shubhasiz, xalqaro hamjamiatning hamkorligiga va bir maromda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Hullas, **barqaror rivojlanish** — kelajak avlodni «risqiga huruj qilmagan» tarzda hozirgi zamон kishisini ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta'minlangan va ijtimoiy muhofazalangan munosib hayot tarzini ta'minlovchi jarayon.

Dunyo, rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi o'zaro bog'langan va ajralmasdir.

*Barqaror rivojlanish prinsipi*

## **TABIAT VA JAMIYAT QONUNIYATLARINI UYG'UNLASHTIRISH**

Biz yuqorida aytib o'tdikki, shu kunda tabiat o'z holicha, kishilar jamiyati o'z holicha yashay olmaydilar. Kishilik jamiyati tabiatni bir bo'lagi va uning ajralmas qismidir. Tabiat

falomati — insonlar hayotining tugashi bilan yakun bo‘lishi mumkinligi haqida Qur’oni karimda ham, Tavrotda ham, Injilda ham, Avestoda ham zikr etilgan.

Qur’oni karimning yetmish beshinchi «Qiyomat» surasida qiyomat kuni bo‘ladigan hodisalar, hisob-kitob, jazo va mukofotlar, tabiatni inkor etish oqibatiga doir ma’lumotlar bayon etilgan. Makkada nozil qilingan ushbu suraning 6-oyatida «Qiyomat kuni qachon o‘zi?» degan savol qo‘yiladi. Bu savolga quyi oyatlarda javob tariqasida «Bas (atrof-muhit dahshatidan) ko‘z qamashganda, oy ham tutilganda, quyosh va oy birlashtirilganda, ana o’sha kunda inson: jazodan qochadigan joy qayerda? — deb qolur! 13-oyatda esa u kunda (qiyomatda) insonga (bu dunyoda) qilib o’tgan va qoldirgan (barcha) narsalarining xabari (Rabbing tomonidan) berilur» — deyilgan.

Hattoki Misrning Xeopsa piramidasida bitilgan qadimgi fir‘avnlar yozib qoldirgan toshlarda ham ushbu haqiqat ifoda etilgan. Unda «insonlar tabiat kuchlaridan foydalana olmasliklari va moddiy dunyoning asl mohiyatini tushunmasliklari sababidan halok bo‘ladilar» — deb bitilgani bejiz emasdир, axir.

Inson bu moddiy dunyoda yashar ekan, umidsizlik ila hayot kechira olmaydi. Ertangi kuniga ishonchszilik, o‘z-o‘zini falokatga olib bormoq, degani. Yaponlar «Yaxshi narsalarga harakat qilib yasha, yomoni o‘zi keladi» deyishadi. Bu dono fikrda jon bor. Biz kelajagimizga ishonch ko‘zi bilan boqib yashashimiz kerak, surriyotlar qoldirib, ularning farovon hayotiga zamin yaratishimiz — ham qarz, ham farzdir. Biz albatta, fozil ishlarni qilishimiz, xususan tabiatni, uning boy ne’matlarini asrab-avaylashimiz, bola-chaqalarimizga ham xudoning in’omlarini bus-butun qoldirishimiz kerak. Buning uchun esa tabiat va jamiyat qonuniyatlarini uyg‘unlashtirishimiz darkor.

«Xo‘s, — deb savol berish mumkin har bir yaxshi niyatli inson, — tabiat qonun va qonuniyatlar niyalardan iborat?». «Qanday amallarni qilsak, biz tabiatni asrab qolamiz?»

Tabiat qonuniyatlar juda ko‘p. Inson sivilizatsiyasi davrida ham ularning tagiga yetgan emas. Tabiatdagi har bir qonun va qonuniyatni ochilishi fanda juda katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan va ekologik nuqtayi nazardan keng e’tirof qilingan tabiat qonuni, qoida, aksioma, qonuniyatlarini makroekologik qonuniyatlar bo‘yicha guruholashtirish maqsadga muvofiqdir.

*Umumiy ekoliyada*, ya’ni nazariy, matematik, modellashirish, eksperimental ekoliyalarga doir qonuniyatlar: atom-

larning biogen ko'chish qonuni; giyokimyoviy asos — V.M.Goldsmit qonuni; energiya oqimining bir tomonga yo'naltirganligi qonuni; modda va energiyaning saqlanish qonuni; radioaktiv parchalanish qonuni; tirik organizmlarning (moddalarning) fizik va kimyoviy birligi — V.I.Vernadskiy qonuni; ekologik korrelatsiya qonuni va h.k.

*Bioekologiyada*, ya'ni organizmlarning sistematik guruhlari, tabiiy biotizim, evolutsion va biosfera ekologiyasiga doir qonuniyatlar: biogenetik qonun; genetik xilma-xillik qonuni; irlsiy o'zgaruvchanlikning gomologik qatori — V.I.Vernadskiy va E.S.Bauer qonuni; evolutsion takrorlanmaslik — L.Dollo qoidasi; xilma-xillik zaruriyati qonuni va h.k.

*Geokeologiyada*, ya'ni geografik, geologik, klimatologik, regional, biogeografik soha ekologiyalariga doir qonuniyatlar: tabiiy tarixiylik qonuni; konstantalik — V.I.Vernadskiy qonuni; daryo o'zanining ko'chib yurishi qonuni; tizimlarning tarkibiy to'liqligi qonuni; atrof-muhit hisobiga tabiiy tizimlarning rivojlanishi qonuni; tabiiy omillarning birgalikdagi ta'siri — E.Mitcherxil, A.Tineman va B.Baule qonuni; evolutsiyani tezlatish qonuni va h.k.

*Amaliy ekologiyada*, ya'ni injenerlik, sanoat, harbiy, agrar, bioresurslar, kommunal, meditsina ekologiyalariga doir qonun va qoidalar: tabiiy resurslarni cheklanganligi aksiomasi; hamma yashash muhitning bir xil qiymatga ega ekanligi qonuni; tayyor mahsulotlarni tabiiy sarsfini kamaytirish qonuni va h.k.

*Ijtimoiy ekologiyada*, ya'ni inson, insoniyat huquqi, oila, sotsial guruhlar, demografik ekologiyalarga doir qonuniyatlar: rivojlanishning cheksizligi qonuniyati; tizimlarning bir me'yorda rivojlana olmasligi yoki tizimlar tarkibidagi tizimchallarning turli vaqtarda rivojlanish qonuniyatlar; ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va tabiiy resurs imkoniyatlarining o'zaro bog'liqligi qonuni va h.k.

Yuqorida sanab o'tilgan makroekologik qonuniyatlarga ta'rif jamiyatshunoslik va tabiatshunoslikka oid ko'pgina kitoblarda berilgan bo'lib, ularga alohida izohlar berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblamaymiz. Faqatgina shu narsaga alohida urg'u bermoqchimizki, ushbu tabiatdag'i hodisa va jarayonlarni kechuviga inson bilvosita va bevosita ta'sir etadi. Ushbu ta'sir esa jamiyat qonuniyatlarining tabiat qonuniyatlar bilan nechog'liq uyg'unlashganiga qarab salbiy yoki ijobiy harakterga ega bo'lishi mumkin.

Jamiyat qonun, qoida va qonuniyatlari har bir millat, elat, davlat, davlatlar va xalqaro hamjamiyatning tarixan tarkib topgan xulq-atvor normalariga mos tushadi. Lekin ular butun insoniyat uchun umumlashtirilgan yohud ma'lum bir hudud yoki millatlar uchun xos bo'lishi ham mumkin. Risolada biz Sizlar bilan uni lokal, regional va global jihatlarini emas, balki Yer kurrasida yashab-istiqomat qilayotgan, shu zamin boylik-laridan bahramand bo'layotgan butun insoniyatning ekologik-ijtimoiy qonuniyatlari, qoidalari va prinsiplariga to'xtalib o'tamiz. Ularga jamiyatning ekologik jihatdan rivojlanishiga asos solishi, ya'ni tabiat va jamiyat qonunlarini uyg'unlashtirishi nuqtayi nazardan qaraladi. Biz faqatgina ularni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy tomonlariga qarab guruqlashtirilgan tarzda beramiz.

*Jamiyatning ijtimoiy-ekologik qonuniyatlari* quyidagilardan iborat: insonlarning yashash huquqining ustuvorligi; tabiiy muhit holati ijtimoiy holat va rivojlanish tarixining chegarasi ekanligi; tabiat holatini antropogen bosimga muvofiqligi; tabiatni muhofaza qilishning komplekslik tizimi; kishilar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishning ustuvorligi va h.k.

*Jamiyatning iqtisodiy-ekologik qonuniyatlari* quyidagilardan iborat: ekologiyalashtirilgan tadbirlarning iqtisodlashtirilgalligi; tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish birligi; tabiiy resurslardan foydalanishni ilmiy asoslashning zaruriyligi; tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish zarurligi; resurslarning cheklanganligi va h.k.

*Jamiyatning siyosiy-ekologik qonuniyatlari* quyidagilardan iborat; ekologik va siyosiy hamkorlik birligi; ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas bo'lagi ekanligi; milliy, mintaqaviy va global ekologik muammolarni hal qilishning umumiyligi; ekologik salbiy oqibatlarning ma'muriy chegara-larga bo'ysunmasligi va h.k.

*Jamiyatning ma'rifiy-madaniy ekologik qonuniyatlari* quyidagilardan iborat: ekologik ta'limning majburiyligi; ekologik ong va madaniyatni shakllantirishning istiqbolliligi; tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rag'batlantirish zarurligi; tabiatni muhofaza qilish ishlarining oshkoraliqi; biologik xilma-xillikni targ'ib qilish zaruriyati va h.k.

*Jamiyatning huquqiy-ekologik qonuniyatlari* quyidagilardan iborat: tabiat qonunlari bilan jamiyat qonunlarining uyg'un-

lashganligi; ekologik javobgarlikning muqarrarligi; ekologik boshqaruvda demokratik talablarning majburiyligi; ekologik kadastr-monitoring-nazorat tizimining yagonaligi va h.k.

Yuqorida keltirilgan inson faoliyatini ekologik jihatdan yo'naltiruvchi qonuniyatlar BMTning 1962-yil «Iqtisodiy rivojlanish va tabiat muhofazasi», 1968-yil «Insonlarning ekologik huquqlari», 1972-yil «Xalqaro ekologik hamkorlikning asosiy qoidalari», 1975-yil «Yevropada xavfsizlikni ta'minlashning yakuniy hujjati», 1992-yil «Biologik xilma-xillikni saqlash», 1982-yil «Umumjahon tabiatni muhofaza qilish xaritasi», 1995-yil «Almati deklaratsiyasi», 1992-yil «O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni», 1999-yil «1999—2005-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitini muhofaza qilish ishlari dasturi», 1998-yil «O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakatlar rejasi» kabi xalqaro va milliy huquq manbalarida, dastur va rejalarida o'z aksini topgan.

Tabiat qonuniyatlarini o'zlashtirib olish va ularni jamiyat qonuniyatları bilan uyg'unlashtirish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy, balki yagona talablaridandir.

Suveren O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yorqin ifodasi, uning ichki va tashqi munosabatlarini mustaqil tartibga solish huquqining yaratilishidadir. Bunday imkoniyatlarning yuzaga kelishi, bir tomonidan o'zligimizni anglash va erkin munosabatlar tizimini yaratishga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, xalqimiz hamda dunyo hamjamiyati oldida har bir fuqaro, jamoa va davlatga ulkan mas'uliyatlar yuklaydi. Chunki sobiq Ittifoq davrida respublikamizda yuzaga kelgan salbiy ekologik oqibatlarning barchasini Markazga yuklagan bo'lsak, endilikda, har bir harakatlarimiz uchun o'zimiz javob berishimizga to'g'ri keladi.

Biz inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat oldidagi burchimizni anglagan holda jamiyat qonunlari, ya'ni huquq me'yollarini xalqaro andozalarga mos ravishda ishlab chiqmoqdamiz. Unga yaqqol misol qilib mustaqillik davrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 450 dan ortiq milliy qonunlar va minglab normativ hujjatlarni olish mumkin. Milliy qonun hujjatlarning barchasi inson huquqlari, erkinliklari va burchlari kafolatlaydigan umumbashariy standartlarga

to'g'ri keladi. Lekin, hamma xalqaro huquq standartlari milliy qadriyatlarimizga va ayniqsa, mahalliy tabiiy sharoitlarga mos kelmaydi. Shuning uchun ham milliy qonunlarni, ya'ni huquqiy xulq-atvor normalarini belgilashda, albatta, o'zimizning mahalliy sharoit va imkoniyatlarimizni inobatga olish darkor.

Tabiat qonunlarini jamiyat qonunlari bilan uyg'unlashtirish prinsipi birinchi bor 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 4-moddasida aks ettirilgan. Jinoyat kodeksida jazo tayinlash 2 omilga: aybdorning va qilmishning ijtimoiy xavflligiga qarab belgilanadi. Vaholanki, ijtimoiy xavfllilik darajasi tabiat qonuniyatlaridan kelib chiqmagan holda tayinlanadi. Jazoning og'irligini, bizning fikrimizcha, tabaqalashgan tarzda, ya'ni mahalliy tabiiy sharoitlarni inobatga olgan holda belgilash kerak. Chunki Orolbo'yи hududida bir daraxtning ekologik funksiyasini tog'oldi, tog'li yoki sug'orma hududlaridagi bir daraxtning funksiyasi bilan aslo tenglashtirib bo'lmaydi. Xullas, tabiiy obyektlarga nisbatan yuzaga keladigan jamiyatdagи ijtimoiy munosabatlarni tabiatga mos ravishda uyg'unlashtirish uchun quyidagi choratadbirlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish talab etiladi:

\* kadrlar tayyorlashda — tabiat qonunlari va jamiyat qonunlarini uyg'unlashtira oladigan mutaxassislarini tayyorlash va qayta ixtisoslashtirish;

\* ta'lim borasida — ikki bosqichli, ya'ni maxsus tabiiy va yuridik ta'lim tizimini tashkillashtirish, jazo va mintaqaviy geografiya o'quv predmeti dasturi va rejalarini ishlab chiqish hamda ta'lim tizimiga joriy qilish;

\* ma'rifat sohasida — tabiat va jamiyat qonuniyatlariga oid lug'at va o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish;

\* qonunchilikda — jamiyat qonunlarini tabiat qonunlariga muvofiq ravishda qayta ko'rib chiqish;

\* fanda — huquqbazarliklar geografiyasi borasida ilmiy izlanishlar olib borish;

\* yurisprudensiyada O'zbekiston Respublikasi hududini huquqiy jihatdan rayonlashtirish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish tabiat va jamiyat qonuniyatlarini uyg'unlashtirish va oxir oqibatda tabiiy tizimlarni saqlab qolish, atrof tabiiy muhit holatini sog'lomlashtirish, lokal, regional va yalpi ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

## **EKOLOGIYAGA OID SAVOLLAR VA JAVOBLAR**

### **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ekologik shartlar qay darajada aks ettirilgan?**

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy qonun hisoblanib, uning 128 ta moddalarida belgilangan normalar hamma uchun majburiy va eng oliv yuridik kuchga egadir, ya'ni barcha huquq me'yorlari va qoidalari unga zid bo'lishi mumkin emas.

Konstitutsiyamizning 50, 54, 55, 100-moddalarida ekologik shartlar bevosita va qolgan barcha moddalarida bilvosita tarzda berilgandir. Masalan, bilvosita tarzda Konstitutsiyaning 93-moddasida Prezidentning ekologik vakolati, 98-moddasida Vazirlar Mahkamasining ekologik vakolatlari belgilangan va hokazo.

Konstitutsiyamizning 50-moddasiga ko'ra, «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar», ya'ni O'zbekiston Respublika fuqarosining har biri tabiatni muhofaza qilishi va uning boyliklaridan hozirgi va kelajak avlodlarni ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan oqilona foydalanish talablariga to'la amal qilishlari shartdir. Chunki tabiat ne'matlari inson yashashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beradi va uning ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi.

Asosiy qonunimizning 54-moddasiga ko'ra, jamiyatning iqtisodiy negizlaridan biri bo'lgan mulkiy munosabatlar bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga mos ravishda e'tirof etiladi. Lekin mulkdor o'z xohishicha egalik qilishi, foydalanishi va uni tasarruf etishi hech qachon ekologik muhitga, ya'ni atrof tabiiy muhit holatiga zarar yetkazmasligi kerak.

Konstitutsiyamizning 55-moddasiga muvofiq «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummiliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir». Umummiliy boylik tushunchasi O'zbekiston konstitutsiyalari tarixida birinchi bor qo'llanilgan bo'lib, u barcha turdag'i mulk shaklini inobatga oladi. Hamma tabiiy obyektlar o'zbek xalqining mulki hisoblanib, uni O'zbekiston Respublikasi davlati ilk bor mustaqil tasarruf qilish huquqiga ega bo'ldi. Endilikda milliy

boylik bo‘lgan barcha tabiiy zaxiralardan o‘ta samaradorlik bilan foydalanish mamlakatimiz rivojining zaminidir. Shuning uchun ham davlat ularni o‘z muhofazasiga oladi.

Konstitutsiyaning 100-moddasiga binoan ilk bor shahar, tuman, viloyat mahalliy hokimiyatlariga o‘z ma’muriy-hududiy bo‘linmalarida atrof-muhitni muhofaza qilish va kolati topshirildi. Ularda yashovchi aholini ekologik jihatdan xavfsizliklarini ta’minlash, iqtisodiy-ekologik tadbirlarni uyg‘unlashtirish hamda kelajak istiqbollarini belgilash maqsadida tabiiy obyektlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini tegishli hududlar bo‘yicha ishlab chiqish, ulardan foydalanish, egallash, ijaralash va mulk sifatida berish huquqini yaratdi, nazorat-javobgarlik mexanizmini takomillashtirishga imkon berdi.

Xullas, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning xalqaro andoza-larga mos ravishda barcha huquqiy asoslarini belgilab berdi.

### **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday ekologik vazifalarni bajaradi?**

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyyati sifatida Konstitutsiyamizning 98-moddasi, 1993-yil 6-maydag‘i «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi», 1992-yil 8-dekabr «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunlarga binoan:

- tabiatni muhofaza qilishning davlat dastur, reja va strategiyalarini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni tartibga soladi;
- tabiiy resurslar kadastrini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- ekologik inqiroz holatini, tabiiy ofat va falokatlarni bar-taraf etish choralarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- ekologik qonunlar ijrosini ta’minlaydi;
- ekologik targ‘ibot, madaniyat, o‘quv va ta’limot tizimlari ni tashkillashtiradi va ularni amalga oshiradi;
- tabiiy resurslardan foydalanish tartibini tasdiqlaydi va shunga o‘xshash o‘z vakolati doirasida faoliyat ko‘rsatadi.

## **Tabiatni muhofaza qilish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i sifatida qanday vakolat berilgan?**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi-dan kelib chiqqan holda uning Prezidentiga quyidagi vakolatlar berilgan:

- ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash uchun zaruriy chora-tadbirlar ko'rish;
- ekologiya borasidagi qonunlarni imzolaydi va ularga oid farmon, farmoyish va qarorlar qabul qilish;
- ekologik qonun me'yorlarini buzuvchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining noekologik hujjatlarini bekor qiladi;
- Oliy Majlis tasdig'iga Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi-ning raisi lavozimiga nomzod taqdim etadi;
- ekologik inqiroz yoki talafot ko'rgan hududlar yoki butun hudud bo'yicha favqulodda holat joriy etadi;
- respublika ichki va xalqaro ekologik siyosatiga doir vakolatlarni amalga oshiradi.

## **O'zbekistonda qanday tabiiy hududlar va obyektlar davlatning alohida e'tibori bilan qo'riqlanadi?**

Dunyo mamlakatlarida, xususan O'zbekiston Respublikasi-da davlatning alohida e'tibori bilan qo'riqlanadigan tabiiy hu-dudlar va obyektlar jamiyatda ekologik, sanitар-sog'lomlash tirish, ilmiy, estetik, madaniy-iqtisodiy vazifalarni bajaruvchi yer toifalari, yer uchastkalari, suv akvatoriyasi, atmosfera havosi, yer osti boyliklari, ya'ni yer kurrasi kengliklari hamda tabiat yodgorliklari (sharshara, noyob turdag'i o'simlik va hayvonot dunyosi, mineral topilmalar, g'aroyib tabiat monum-mentlari)mavjud bo'lib, ular maxsus vakolatlangan davlat or-ganlari va davlatlararo tashkilotlar tomonidan milliy va xal-qaro huquq normalari asosida muhofaza etiladi.

1993-yil 7-mayda qabul qilingan «Alohiда muhofaza etila-digan tabiiy hududlar to'g'risida»gi qonunning preambulasida ta'kidlanganidek, «Ushbu hududlar hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko'zlab noyob hamda ekologik, iqtisodiy, ilmiy,

madaniy, sanitariya-sog'lomlashtirish, estetik nuqtayi nazardan milliy boylik va umumxalq mulki bo'lmish qimmatli tabiiy majmualarni muhofaza etish»ni maqsad qilib oladi.

Respublikamizda 9 ta davlat qo'riqxonasi, 2 ta davlat biosfera qo'riqxonasi, 2 ta davlat milliy bog'i, 9 ta buyurtma qo'riqxona va 1 ta kamyob yovvoyi hayvonlarni ko'paytirish markazi, 2 ta davlat tabiiy yodgorliklari va yuzlab tabiat obyektlari mavjud bo'lib, ular alohida muhofaza etiladigan tabiiy obyektlar va hududlar toifasiga kiradi. Ularning egallagan maydoni jami yer fondimizning 4,6 foizini tashkil etadi.

### **Biosfera qo'riqxonasi nima?**

Biosfera, ya'ni tirik organizmlar yashash qobig'ida insoniyatning atrof-muhitga ta'sirini o'rganish, nazorat qilish va xalqaro monitoring (kuzatuv)ni olib borish maqsadida BMT-ning YUNESKO tashkiloti dasturi asosida maxsus tashkil etilgan qo'riqxona. Xalqaro standartlarga ko'ra, biosfera qo'riqxonasining (qo'riqxonadan farqli) hududini uchta tegraga (zonaga) ajratiladi: kuzatuv shoxobchalariga ega bo'lgan uning *markaziy yadrosi*; ushbu yadroni muhofazalovchi *bufer qismi*; ilmiy va madaniy-estetik vazifalarni o'tovchi *poligon*. Hozirgi kunda O'zbekistonda Chotqol va Zomin biosfera qo'rixonalarini mavjud.

### **Biologik xilma-xillikmi yoki rang-baranglikmi?**

Yer kurrasining biosfera qobig'ida yashovchi o'simlik va hayvonot dunyosining turli shakllari, ko'rinishlari va turlari ekotizimlarda rang-barangligidan ko'ra, xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Chunki ekologik tizimda organizmlar nafaqat rang-barangligi, balki kattayu-kichikligi, ma'lum bir ishlarni, funksiyalarini bajara olishi, muayyan tabiiy jarayonlarda qatnashishi bilan ham ishtirot etadi. Ularning har biri, rangidan qat'i nazar, biosferada ma'lum bir ekologik funksiya bajaradi. Hech qachon tuproqda azotli birikmalarni (nitratlarni) parchalovchi mikroorganizm — bakteriyalarning funksiyasini boshqa tuproqda yashovchi mikroorganizmlar bajara olmaydilar. Shu singari o'txo'r hayvonlarning oziqa-zanjirdagi o'mini yirtqich hayvonlar bosa olmaydilar.

Yer kurrasida 500 mingdan ortiq o'simlik turlari mavjud bo'lib, insonlar kundalik hayotiy faoliyatlarida ularning 6000 turidan foydalanadilar, xolos. O'simliklarning 1500 turi dorivor o'simliklar turkumiga kiradi. O'zbekistonda 4148 o'simlik dunyosi turidan 577 tasi dorivor, 103 tasi bo'yoq dor va 560 tasi efir moylidir. O'rmonlar respublikamiz umumiy maydonining 5,1 foizini tashkil etadi, lekin ularning yer yuzini qoplaganlik darajasi 0,3—0,4 foizga tengdir. Keyingi 20 yil ichida ekologik vaziyatning yomonlashuvi sababli O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga o'simlik dunyosining 147 turi kiritildi.

Yer kurrasida hayvonot dunyosining 2 milliondan oshiq turi mavjud bo'lib, ularning har birini ekotizimlarda o'z o'rni va foydali ekologik xususiyatlari bor. Yer yuzida yashovchi va o'suvchi noyob va yo'qolib ketayotgan tirik organizmlarning kuniga bir turi mamlakatlar yoki dunyo Qizil Kitoblariga kiritilmoqda. Shuning uchun ham insonlar ularning xilma-xilligini saqlab qolishlari zarur.

1992-yil Rio-de-Janeyro (Braziliya)da — 156 mamlakat rahbarlari tomonidan imzolangan «Biologik xilma-xillik to'g'-risida»gi Konvensiyaga qo'shilgan O'zbekiston Respublikasida (1995-yil Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilingan. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 1-apreldagi 139-sonli qarori bilan «Biologik rang-baranglikni saqlanishning milliy strategiyasi va harakatlar rejasi» ishlab chiqilgan.

Biologik xilma-xillik to'g'-risidagi xalqaro Konvensiyaning maqsadi:

- Yer kurrasida biologik resurslarning xilma-xilligini saqlash;
- xalq xo'jaligi sohalari (qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaligi) da biologik resurslardan foydalanishda davlatlar resurslarga va xalq xo'jaligi sohalariga zarar yetkazmaydigan usullarni qo'llash;
- genetik resurslarni ishlatish va ulardan foya olishda adolatli va teng huquqli usullarning qo'llanilishini rag'batlantirish.

### **Qo'riqxona bilan buyurtma qo'riqxonanining farqi nimada?**

Ularning farqi avvalombor nima maqsadlarda tashkil etilishiда **Qo'riqxona** — noyob va tipik (shu yerga xos) tabiiy kompleks. Unda o'simlik va hayvonlar genofondini saqlab qolish

*va o'rganish, tabiatdagi jarayonlar va hodisalarning ekologik monitoringini olib borish maqsadida qo'riqxonalar xo'jalik obo-rotidan chiqariladi va ularda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy tekshirish muassasasi bo'lgan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud maqomi o'rnatiladi. 1993-yil 7-mayda qabul qilingan «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq, qo'riqxonada:*

- ◆ tabiat majmuini tabiiy holatda asrash;
- ◆ ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ekologik ta'limni targ'ib qilish;
- ◆ davlat ekologik ekspertizasining etaloni sifatida ulardan foydalanish.

Ularda har qanday xo'jalik va boshqa turdag'i inson faoliyati ta'qilanganadi. O'zbekiston Respublikasida qo'riqxonalar davlat mulki va uning muhofazasidadir. Shuning uchun ham ular «Davlat qo'rixonasi» deb nomlanadilar. Ularning umumiy maydoni 2164 km<sup>2</sup> yoki alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud yerlarining 10 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi. Davlat qo'rixonasida o'simlik va hayvonot dunyosini ko'paytirish yoki joylashtirishga ruxsat etilmaydi. Unda faqatgina yong'inga qarshi kurash tadbirlarini o'tkazishga ruxsat beriladi.

**Buyurtma qo'rixonasi — tabiat majmualari yoki ularning ayrim bo'laklarini asrash, ko'paytirish va tiklash maqsadida tashkil qilingan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud.**

*Buyurtma qo'rixonada esa, qo'rixonadan farqli:*

- alohida qimmatga ega bo'lgan *landshaftlarni tiklash* (yaxlit buyurtma qo'rixona);
  - qimmatli, nodir va yo'qolib borayotgan *hayvonot va o'simlik dunyosini asrash va tiklash* (zoo-botanik buyurtma qo'rixona);
  - *qazilma boylik va ularning majmuini asrab qolish* (paleontologik buyurtma qo'rixona); *jonsiz qimmatli obyekt va majmualarni asrab qolish* (gidrologik buyurtma qo'rixona);
  - *noyob relyef shakllarini asrab qolish* (geomorfologik buyurtma qo'rixona);
  - *nodir genologik va minerologik hosilalar va tuzilmalarni asrab qolish* (geologik va minerologik buyurtma qo'rixona).

Buyurtma qo'rixonalarda muddatsiz (muddati ko'rsatilmagan) va muddatli (5 yilgacha—qisqa, 5 yildan ko'p uzoq) faoliyat olib borish ruxsat etiladi.

Buyurtma qo'riqxonalar ham davlat tasarrufida bo'lib ularga: Arnasoy ( $663 \text{ km}^2$ ), Qorako'l ( $100 \text{ km}^2$ ), Sayg'oq ( $10000 \text{ km}^2$ ), Sudoniy ( $500 \text{ km}^2$ ), Sarmish ( $25,2 \text{ km}^2$ ), Qoraqir ( $300 \text{ km}^2$ ), Qarnobcho'l ( $400 \text{ km}^2$ ), Qo'shrabot ( $156 \text{ km}^2$ ), Dengizko'l ( $86 \text{ km}^2$ ) kabi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kiradi.

### **«Ekosan» bilan «Bioekosan»ning farqi bormi?**

Ha bor. «*Ekosan*» — ekologiya va salomatlik atamalarining birinchi bo'g'inlar yig'indisidan (ekosan) olingan atama. Ekosan 1992-yil Toshkent shahrida tuzilgan nodavlat, notijorat tashkiloti — *xalqaro jamg'armadir*. Jamg'armaning asosiy maqsadi Yer kurrasida, xususan Markaziy Osiyodagi global va mintaqaviy (regional) ekologik va sanitari-gigiyenik muammojar yechimini topish uchun sarmoya jamg'arish va ularni ushbu maqsadlarga muvofiq ishlatishtdan iborat. Ekosan jamg'armasi qoshida «Rim klubi»ning filiali «Toshkent klubi» tashkil etilgan. Ekosanning hozirgi kunda 3 milliondan oshiq a'zosi bo'lib, 34 tadan oshiq mamlakatda 70 ga yaqin bo'limlari va vakolatxonalarini faoliyat yurgazmoqda. Ekosan prezidenti — falsafa fanlari doktori, professor Yu.Sh.Shodimetov.

«*Bioekosan*» — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi biologiya-ekologiya-salomatlik yo'naliishidagi Respublika yoshlaringin o'quv-uslubiy majmuasidir. Majmua — maktabdan tashqari ta'lim muassasasi hisoblanadi. U 1929-yili tuzilgan bo'lib, avvaliga «Respublika yosh tabiatshunoslar markazi», 1995-yildan esa Respublika yoshlaringin «Bioekosan» o'quv-uslubiy majmuasi sifatida faoliyat yurgazib kela-yapti. Uning tarkibida 4 bo'lim va 2 laboratoriya mavjud. Bioekosanning maqsadi — biologiya, ekologiya va salomatlik yo'naliishidagi maktabdan tashqari ta'limni to'garak va klublarni tuzish, turli tadbirlarni o'tkazish va ilmiy-metodik asoslarni yaratish orqali olib borishdir.

### **Geoekologiya — ekologiya fanlari tarmog'iga kiradimi yo Yer bilimi fanlari tarmog'igami?**

**Geoekologiya** (grekchada «ge» — yer, «oikos» — yashash joyi, uy, makon, «logos» — ta'limot) — tirik organizmlarning ma'lum bir *geografik muhitda* yashash qonuniyatlarini o'rqa-

nadigan fan sohasi va o'quv predmeti. Unda geografik muhit bo'lib:

— *tabiiy-geografik qatlam* — havo qatlami, quruqlik yuzasi, tuproq qatlami, suv akvatoriyasi, yer osti litologik qobiq;

— *muayyan tabiiy-iqlim mintaqalari* — tundra, tayga, o'rmon, aralash o'rmon, cho'l, sahro, past tog'lik, o'rta tog'-lik, baland tog'lik, subtropiklar, tropiklar, savannalar va h.k.;

— *landshaftlarning taksonomik birliklari* — okrug, oblast, joy, urochisha, fatsiya;

— *antropogen o'zgargan hudud* — aholi punktlari, sanoat tegra (zona)lari, agrar tegralar, texnogen buzilgan yerlar;

— *tabiat ofatlari yoki hodisalari natijasida buzilgan yerlar* bo'lishi mumkin.

«Geoekologiya» ekologik fanlar tarmog'iда turadi va shuning uchun ham uning predmeti bo'lib, tirik organizmlarning o'zgaruvchan geografik muhitda bo'ladigan qonuniyatlaridir.

Ma'lum bir geografik muhitda (geotizimda) ekologik holatning geografik jihatlarini o'rganishni o'z predmeti qilib olgan fanlar esa *geografiya fanlari* tarmog'iga kiradi. Ularni «Tabiiy geografik qobig'lar ekologiyasi», «Tabiiy-iqlim mintaqalari ekologiyasi», «Antropogen o'zgargan hududlar ekologiyasi»; «Tabiat o'zgargan hududlar ekologiyasi» deb atash maqsadga muvofiqdir.

Biror bir ilmiy atama bir vaqtning o'zida 2 xil ma'no anglatishi aslo mumkin emas. «Geoekologiya» ko'pgina ekolog olimlar — N.F.Reymers, A.A.Rafikov, T.A.Akimova, V.V.Xaskina, V.V.Petrov, A.A.Dajo, Yu.Sh.Shodimetovlar tomonidan birinchi bo'lib «Geografik ekologiya» ma'nosida ishlatalib kelingan va u fanda e'tirof etilgan. Geologik qobig'da ekologik masalalarni tadqiq qiluvchi fan yoki o'rganuvchi o'quv predmetini esa «*Geologik ekologiya*» deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fanning predmeti — tirik organizmlarning geologik qobig'da yashash qonuniyatlarini o'rganish va tadqiq etish bo'lib hisoblaniladi.

### **Rekreatsiya nima?**

*Rekreatsiya* (lotinchada «recreatio» — tiklash) — turizm va aholining ommaviy dam olishi orgali ulaming salomatligi va ish qobiliyatini tiklash, hordig'ini chiqarish maqsadida tashkil-

lashtirilgan qulay geografik va iqlim sharoitlarga ega bo'lgan, alohida muhofaza etiladigan hudud.

Rekreatsiya tegralarida ularning maqsadiga zid kelmaydigan, ya'ni kishilarning dam olishi va turizm bilan shug'ullani-shiga halaqit bermaydigan xo'jalik faoliyati yuritishga ruxsat etiladi. Chorvoq suv ombori atrofidagi dam olish zonasasi — rekreatsion hududdir.

### **Dendrologiya bog'i nima uchun tashkil etiladi?**

*Dendrologiya bog'i* (grechkada «dendro» — daraxt, «logos» — ta'limot) — dam olish, rekreatsiya va shunga o'xshash ma'rifiy, madaniy maqsadlarni tezkor ravishda foydalishni amalga oshirish imkonini beruvchi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud.

Umum davlat ahamiyatidagi Toshkent dendrologiya bog'i ko'p millionlik shahar aholisining kundalik hordig'ini chiqarish uchun yaratilgan daraxt va butalar kompozitsiyasidan iborat bo'lgan hududdir. Milliy qonunchilikka muvofiq dendrologiya bog'i turli mulkchilik shaklda tashkil etilishi mumkin.

### **Davlat suvlarni qanday muhofazalaydi?**

Suv ekotizimlarda ketayotgan barcha jarayonlarda ishtiroy etadi. Suvsiz hech bir tirik mavjudot yashay olmaydi. Shuning uchun ham biz suv obyektlarini alohida e'tibor bilan muhofaza qilamiz.

Planetamiz suv resurslari bilan bir tekis ta'minlanmagan. Uning asosiy qismi okeanlarda (96,5%) qolgani esa muzliklarda (2,5%), ko'l va daryolarda (0,1%), yer ostida (0,9%). Markaziy Osiyodagi yopiq Orol havzasida suv miqdori  $183 \text{ km}^3$  ga teng. Bu nisbatan juda kamdir. Bir kunda har bir kishi shaharlarda  $500 \text{ m}^3$  dan oshiq suv xarajat qilishi mumkin.

1993-yil 6-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunga binoan suv — umummilliy boylik-davlat mulkidir. U davlat muhofazasida turadi.

Davlat O'zbekistonda suvlarni muhofaza etish uchun:

- suv obyektlarini toifa (fond)larga ajratadi va ularni huquqiy holatini muhofaza etish va oqilona foydalanish nuqtayi nazardan belgilaydi;
- davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining suvgaga doir munosabatlarini tartibga solish vakolatlarini belgilaydi;
- yuridik va jismoniy shaxslarning suvlardan foydalanishlarini nazorat qiladi, suv kadastri va monitoringini olib boradi;
- suv holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, inshootlar va boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish va ishga tushirishning shartlarini belgilaydi;
- suv obyektlarida, suvni muhofaza qilish tegralari va sohil bo'yalarida qilinadigan ishlarni bajarish tartibini aniqlaydi;
- subyektlarni (tashkilot, korxona, muassasa va fuqaro) birlamchi va ikkilamchi foydalanish huquqini aniqlaydi;
- suvdan umumiy va maxsus foydalanish tartibini belgilaydi;
- foydalanishni cheklaydi va me'yorini (limitini) o'rnatadi;
- foydalanish muddatlarini aniqlaydi;
- foydalanuvchilarni huquq va majburiyatlarini o'rnatadi;
- suvlardan foydalanishni bekor qiladi, o'zgartiradi, mahrum qiladi va to'xtatib turadi;
- nizolarni hal etish yo'llarini aniqlaydi;
- javobgarlikka tortish sanksiyalarini ishlab chiqadi va qo'llaydi.

### **Tabiat yodgorliklariga nimalar kiradi?**

*Tabiat yodgorliklariga* — ekologik, ilmiy, estetik, madaniy qimmatga ega bo'lgan noyob va o'ziga xos tabiiy ravishda paydo bo'lgan obyektlar kiradi. Ularga tabiatning inson ta'sirida bo'limgan etalon yer uchastkalari, noyob va faqatgina shu yerga xos (endemik) yoki yo'q bo'lib ketayotgan yohud kamyob o'simlik va hayvonot dunyosi, antiqa relyef va tosh shakllari, geologik ochilmalar, vulqonlar, sharsharalar, muzliklar, doimiy qorlar, uzoq yashayotgan daraxtlar va shunga o'xshash obyektlar kiradi.

O'zbekistonda tabiat yodgorliklari davlat tomonidan belgilangan shartlarda va ushbu tabiat yodgorliklari joylashgan tashkilot, muassasa, korxonalar tomonidan muhofazalanadi. Noyob tabiat yodgorliklari maqomidagi yer uchastkalaridan Vardonze ( $3 \text{ km}^2$ ) va Yozyovon ( $31,8 \text{ km}^2$ ) Davlat tabiat yodgorliklari mavjud.

## **Milliy bog'mi yoki Davlat tabiiy milliy bog'imi?**

Xalqaro miqyosda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar «Milliy bog» deb aytildi. Lekin milliy bog O'zbekistonda 1993-yil 7-mayda qabul qilingan «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi qonunning III bo'lim 15-moddasiga ko'ra, «Davlat milliy tabiat bog'lari» deb ataladi. Chunki ular faqat davlat tasarrufida turadi.

*Davlat tabiiy milliy bog'i* — alohida ekologik, tarixiy va estetik qimmatga ega bo'lgan, bir vaqtning o'zida ham tabiatni muhofaza qilish, ham rekreatsiya, ham ma'rifiy, ilmiy va madaniy maqsadlarga mo'ljallangan alohida muhofaza etiladigan tabiiy (qo'riqxona, buyurtma qo'riqxona, rekreatsiya va madaniy — sog'lomlashtirish tegralarini) obyektlarni o'zida qamrab olgan hududiy majmua.

O'zbekiston Respublikasida davlat tasarrufidagi Zomin (241,1 km<sup>2</sup>) va Ugom-Chotqol (5745,9 km<sup>2</sup>) tabiiy milliy bog'lari mavjud.

Shaharlarda ushbu maqsadlarni bajaruvchi tabiiy hudud kompozitsiyasi «Milliy bog» deb atalishi mumkin, lekin ular ham davlat tasarrufidadir. Ulardagi yer uchastkalari hamda dam olish, rekreatsiya, sanitار-sog'lomlashtirish obyektlari yuridik va jismoniy shaxslarga turli mulk shaklida egallah, foydalanish va ijaraga berilishi mumkin.

## **Kishilarning qanday harakatlarini ekologik faoliyat deb atash mumkin?**

Atrof tabiiy muhit va uning obyektlarini tiklash, sog'lomlashtirish, qayta ishlab chiqarish va muhofaza qilishga qaratilgan barcha faoliyat turlarini ekologik faoliyat deyish mumkin.

## **Tabiiy resurslar tugaydimi?**

Avvalombor tabiiy resurs nima degan savolga javob bermoq kerak. *Tabiiy resurs (zaxira)* deb tabiiy kelib chiqqan o'simlik va hayvonot dunyosi, yer va yer osti boyliklari, atmosfera havosi va suv obyektlaridan kishilarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'nnaviy va boshqa hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlatilayotgan yoki shu maqsadlarga mo'ljalangan tabiiy obyektlarga aytildi. Ular fanda va amaliyotda

floristik, faunistik, ekologik, mineral, gidrologik, yer va o'rmon resurslari deb ataladi.

Tabiiy resurslar tiklanishiga ko'ra tiklanadigan va tiklanmaydigan turlarga ajratiladi.

*Tiklanmaydigan tabiiy resurslarga* — mineral (neft, gaz, ruda, ko'mir va h.k.) boyliklar, ayrim turdag'i yo'qolib ketgan hayvonot va o'simlik dunyosi kiradi.

*Tiklanadigan tabiiy resurslarga* — floristik, faunistik, hidrologik, o'rmon, kosmik va yer obyektlari kiradi. Ammo «Qizil Kitob»ga kirgan noyob va yo'qolib ketayotgan floristik va faunistik resurslar, tuproqlarning tabiiy unumдорligi, ularni tiklash imkoniyatining pastligi uchun ham *nisbatan tiklanmaydigan* resurslar toifasiga kiritiladi.

Umuman olganda, tabiiy resurslar ularning qayta tiklanishi, zaxirasi, maydon va makon bo'yicha tarqalishiga ko'ra turli ko'rinishda tasniflanadi.

### **Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish deganda nimani tushunamiz?**

*Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish* deb insonlarning xo'jalik va boshqa faoliyatlarida tabiat boyliklaridan ularning qayta tiklanish qobiliyatini saqlash, modda va energiya almasuvining tabiiy kechuvini to'xtatmasdan, zaxiralarining umumiyligi hajmini hisobga olgan holda samarali foydalanishga aytildi.

Tabiiy resurslardan foydalanish insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishning zaruriy jarayoni hisoblandi. Lekin, tabiiy obyektlarning resurs hususiyatlarini yo'qtib qo'ymaslik uchun qonun hujjatlari asosida turli foydalanish me'yordari o'rnatiladi. Ular: chiqitlar yig'ilishi (konsentratsiyalashuvi)ning eng yuqori me'yori; kimyoiy moddalarning son jihatdan eng yuqori ifloslanish me'yori va shu kabi ko'rsatkichlardir. Ushbu me'yordan ortiqcha foydalanish yoki atrof-muhitni iflos qilish huquqbuzarlik bo'lib hisoblanadi va tegishli yuridik javobgarlikka tortishga asos bo'la oladi.

### **Ekologiya fanmi yoki o'quv predmetimi?**

Ekologiya ham fan tarmog'i, ham o'quv predmetidir. *Ekologiya fani* — organizmlarning ma'lum ekotizimlarda yashash qonuniyatlarini, ya'ni organizmlarning o'zaro va ularning at-

rof-muhiti bilan bog'liq bo'lgan hayot tarzini o'rganadi. Dastlab u biologiya fanining tarmog'i sifatida shakllangan bo'lsada, hozirgi kunda o'zining mustaqil obyekti, predmeti, metodologiyasi va amaliy tadbiqiga ko'ra tabiiy, gumanitar va hattoki, aniq fanlarni ham mujassamlashtiruvchi kompleks fan sohasi hisoblanadi.

Hozirgi zamon ekologiyasi tizimida 60 dan ziyod fan yo'nalishlari mavjud bo'lib, professor N.F.Reymers ularni quyidagi guruhlarga birlashtiradi: Umumiy ekologiya, Dinamik ekologiya, Nazariy ekologiya, Amaliy ekologiya, Ijtimoiy ekologiya, Geoekologiya, Bioekologiya.

*Ekologiya o'quv predmeti* — tirik organizmlar, shu jumladan insonlarning atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan hayot tarzi haqidagi ta'llimi beruvchi o'quv kursi. O'quv predmeti sifatida «Ekoliyiya» fani ta'llim sohasida turli xil, masalan, «Ekologiya asoslari», «Umumiy ekologiya», «Ekoliyiaga kirish», «Bioekologiya», «Biogeografiya va ekologiya asoslari», «Amaliy ekologiya», «Ijtimoiy ekologiya», «Geoekologiya» va hokazo nomlarda o'qitiladi. Lekin bizning fikrimizcha, matablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlariда «Ekoliyiya alifbosi» va «Ekoliyiaga kirish», oliv o'quv yurtlarining boshlang'ich kurslarida «Ekologiya asoslari», yuqori kurslarida esa uning tarmoqlari (Geoekologiya, Bioekologiya, Amaliy ekologiya, Ekoliyiya huquqi, Sanoat ekologiyasi, Gidroekologiya, Ekokimyo) bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berish maqsadga muvofiqdir. Chunki o'quvchi-yoshlar hamda talabalar Ekoliyiya asoslari va muhim ekologik tushunchalarni bilmay turib uning boshqa maxsus tarmoqlarini o'zlashtirib olishlari juda qiyin bo'ladi.

Xullas, O'zbekistonda ekologik ta'llimda oddiyidan-murakkabga tomon boruvchi yagona tizim ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### **Ekologik ta'llim deganda nimani tushunamiz?**

*Ekologik ta'llim* deb Yer kurrasining tabiiy boyliklariga va yaqin fazoga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, ulardan o'ta samaradorlik bilan foydalanish va insoniyatni atrof tabiiy muhit bilan uzviy bog'langanligini chuqr anglash ruhida kishilarga nazariy va amaliy bilimlarni berish va o'qitishga aytildi.

O'zbekistonda Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi «Bioekosan» respublika yoshlaringin o'quv-metodik majmuasi tomonidan «Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiysi» ishlab chiqilgan. Unda maktabgacha, muktab, muktabdan tashqari, akademik litsey va kollejlardan, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari va mala-ka oshirish markazlarida ekologik ta'lim bosqichlari, uning mazmuni va mohiyati ochib berilgan.

### **O'zbekistonning ekologik siyosati qanday?**

*Ekologik siyosat* — muayyan davlatda yoki xalqaro miqyosda ma'lum bir yer, suv va havo kengligida yuzaga kelgan ekologik holatni hisobga olgan tarzda atrof-muhitni yaxshilash va sog'lomlashtirishga qaratilgan ichki va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy harakat.

O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati uning Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, xususan «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli kitobida, 1992-yil 9-dekabrdan qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunda, «O'zbekiston Respublikasida 1999—2005-yillarga mo'ljalangan atrof muhitni muhofaza qilish harakat dasturi»da; «O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish milliy harakat rejasida»; «O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit gigiyenasi bo'yicha milliy harakat dasturi»da, «Biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va harakat rejasida o'z ifodasini topgan. Ularga binoan, *O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati* — inson hayoti uchun zarur bo'lgan ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy zaxiralardan o'ta samaradorlik bilan oqilona foydalanish, pirovard natijada tabiat bilan jamiyat o'rtaсидаги узви муносабатларни илмий асосда уйг'уналаштириш.

### **Ekologik ong va madaniyat nima?**

*Ekologik ong* bu har bir insonning hayoti va faoliyatida atrof tabiiy muhit uning yashash makoni ekanligini anglash darajasi. Ekologik ongli insonni har doim ham ekologik madaniyatli, deb bo'lmaydi. Chunki ekologik barqarorlik zaruriyatini anglash hali uni inson o'z faoliyatida tadbiq qildi, degan

so'z emas. Insonlarning Ona-tabiatga nisbatan ekologik ongli faoliyatlarini ularning ekologik madaniyatlarini belgilaydi.

***Ekologik madaniyat*** esa hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik muammolarning yechimini topish va ekologik xavfsizlikka erishish har bir inson hayotida ulkan mas'uliyat ekanligini anglash va shu asosda faoliyat yuritishdir. U muayyan davlat va jahon madaniyatining rivojlangan bosqichi hamda tarkibiy qismidir.

### **Ekologik munosabat deganda biz nimani tushunamiz?**

***Ekologik munosabat*** tabiatni muhofaza qilish, uni sog'lom-lashtirish, yaxshilash va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanshda kelib chiqadigan, kishilarning harakat yoki harakatsizliklarini belgilovchi ijtimoiy munosabat turi. Ekologik munosabat milliy qonun va qonun osti me'yoriy hujjatlarda (*yuridik xarakterdagi*), ahloq-odob qoidalarida (*ijtimoiy xarakterdagi*), xalqaro huquq me'yorlarida (*siyosiy xarakterdagi*) o'z aksini topgandir.

### **Ekologik inqiroz qanday yuzaga keladi?**

***Ekologik inqiroz*** bu ekologik tizimda modda va energiya almashinuvining tabiiy holatda kechishining buzilishi yoki modda va energiyaning kichik va katta aylanish jarayonlari ning ma'lum bir bosqichdagi uzilishidir. Masalan, dehqonchilik madaniyatining fan talablari darajasida bo'Imasligi, tuproq unumdarligining pasayishi va undagi mikroorganizmlar ning qirilib ketishi oqibatida yerga tushadigan organik moddalarning o'simlik dunyosi uchun ozuqa bo'lgan mineral moddalarga aylanmasligi sodir bo'ladi. Natijada tuproq ekologiyasi buziladi va inqirozli holat yuzaga keladi.

Orol dengizining qurib borishi natijasida Orolbo'yи hududlarida iqlim resurslari, tuproq unumdarligi, atmosfera havosi, yer osti va yer usti suvlari, o'simlik va hayvonot olamida ro'y berayotgan o'zgarishlar va salbiy jarayonlar ekologik inqirozga misol bo'la oladi.

Ekologik inqirozli hududlarning ekologik tizimlarda modda va energiya almashinuvining ekologik xavfsiz darajada tiklash juda murakkab va o'ta ko'p chiqimli tadbirdir. Shuning uchun

ham ekologik xavfning oldini olish chora-tadbirlari *birlamchi*, unga qarshi kurash esa *ikkilamchi* ahamiyat kasb etishi darkor.

### **Ekologik tanglik ekologik inqiroz emasmi?**

Yo‘q. *Ekologik tanglik* — xalqaro hamjamiyat, davlat va jamiyat tomonidan global, mahalliy va regional miqyosdagi ekologik muammolar yechimini topishning qiyinlashuvidir. Ushbu qiyinchilik iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy imkoniyatlarning yo‘qligidan yoki yetishmasligidan ham kelib chiqishi mumkin.

### **Ekologik barqarorlik nima?**

*Ekologik barqarorlik* — inson faoliyati va tabiat «injqlik»-lari (zilzila, toshqin, sunami va h.k.)ning atrof-muhitga salbiy ta’sir etmaydigan darajasi, ya’ni ma’lum bir hudud, kenglik va mintaqada ekologik xavfsiz muhit holatining bir me’yorda ushlab turilishi. Ekologik barqaror bo‘lgan joylarda ekologik tizimdagi modda va energiya almashinuvining tabiiy holatda kechuvi saqlanib turiladi, ekotizimlarda tirik organizmlarning «immun» (qarshi turish) qobiliyati yo‘qolmaydi hamda ularning ko‘payish va tiklanish jarayoni tabiiy holda kechadi.

### **Ekologik omillar deganda nimalar inobatga olinadi?**

*Ekologik omillar* — tirik organizmlarning yashash muhitini belgilovchi va unga ta’sir etuvchi komponentlar tushuniladi. Ular tabiatni, ta’sir doirasi, darajasi va sharoiti, kelib chiqish vaqtini va davriyiligiga ko‘ra tasniflanadi. Masalan, tabiiy omillarni kelib chiqishiga ko‘ra — kosmik, abiotik, biotik, biogen, biologik, antropogen omillarga ajratish mumkin. Ko‘pgina adabiyotlarda ekologik omillar guruhga: *abiotik (jonsiz)* va *biotik (jonli)* omillarga ajratilgan. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, kishilik sivilizatsiyasi davrida ekologik omillar kelib chiqishi jihatidan sof biotik yoki sof abiotik bo‘lmasligi ham mumkin, ya’ni ular oraliq — bog‘lovchi omillar (masalan, tabiiy-antropogen)dan ham iborat bo‘lishlari mumkin. Antropogen omilni biotik omillar toifasiga kiritish mumkin, chunki odam ham tabiatning bir jonli, lekin juda faol bo‘lagidir.

## **Ekologik tizim ekotizim emasmi?**

Ha, *ekologik tizim ekotizimdir*. U tabiat qonuniyatlariga monand ravishda o'zaro uzviy funksional bog'langan tirik organizmlar va ularning yashash muhiti elementlari yig'indisidir. Ushbu abiotik va biotik omillar (jumladan inson ham) modda va energiya almashinuvi jarayonida «yagona zanjir» bo'lib hisoblanadi. Masalan, o't-o'lanlarni o'txo'r hayvonlar yeydi, ular o'z navbatida yirtqichlar uchun, o'lgan yirtqichlar esa, qushlar yoki tuproq tarkibidagi ko'zga ko'rinnmas mikroorganizmlar uchun ozuqa vazifasini o'taydi. Mikroorganizmlar tuproqda organik moddalarni parchalab, mineral moddalar (anorganik tuz, suv va karbon-oksidlari)ga aylantiradilar. O't-o'lanlar esa, aynan mikroorganizmlar parchalab bergen mineral moddalaridan oziqlanadilar va rivojlanadilar. Ularni o'txo'r hayvonlar iste'mol qiladilar va hokazo. Shu tariqa modda va energiya almashtinish jarayonida uzlusiz tizimli harakat («ozuqa zanjiri») davom etadi. «Ozuqa zanjiri»da energiya, suv, mineral modda va gazlar ishtirok etmasa hech qanday harakat yuzaga kelmaydi. Shuning uchun ham o'zaro uzviy bog'langan tabiat «zanjiri» — «Ekotizim» deb ataladi. *Zanjirning biron bir joyda «uzilib qolishi» ekologik inqirozga olib keladi.*

## **Ekologik nazoratni kimi olib borishlari mumkin?**

*Ekologik nazorat* maxsus vakolatlangan shaxslar, guruhlar yoki davlat organlari tomonidan olib boriladi. Ular davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha olib borayotgan faoliyatlarini tekshiradilar. 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining VII bobiga binoan ekologik nazoratga atrof tabiiy muhit monitoringi ham kiradi.

## **Ekologik monitoring nima?**

*Ekologik monitoring* bu Yer kurrsasi, muayan mintaqa, mamlakat yoki hududda atrof-muhit holatini maxsus vakolatli idoralar, tashkilotlar va organlar yordamida kuzatib borish. Ushbu kuzatuvni amalga oshirishda, ya'ni monitoring tizimida: tabiiy obyekt va resurslarni hisobga olish, ularni baholash,

istiqbolini va ularga ta'sir etuvchi salbiy hodisa va jarayon-larning oldini olish chora-tadbirlarini belgilash kerak bo'ladi.

Ekologik monitoring kuzatuv maydoniga ko'ra: global, (kurraviy), regional (mintaqaviy) va lokal (mahalliy) turlarga ajratiladi hamda statsionar (doimiy) va harakatdagi kuzatuv shohobchalari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida Ekologik monitoring tuzilmasi, mazmuni va amalga oshirilish tartibi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va Vazirlar Mahkamasining tasdiqiga binoan O'zboshgidromet, Yer resurslari davlat qo'mitasi, O'zgeodezkadastr, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi kabi maxsus vakolatlangan davlat organlari tomonidan va tegishli idoralar ko'magi orqali olib boriladi.

### **Ekologik ekspertiza nima degani?**

**Ekspertiza** lotincha «exertus» — tajribali degani. Ekologik ekspertiza xo'jalik faoliyatining atrof tabiiy muhit holatiga hamda jamiyatning ekologik xavfsizligini ta'minlash talablariga rioya etilishini mutaxassislar tomonidan xulosalashdir. Ekologik ekspertiza kim tomonidan tashkil etilganligi yoki vakolatlanganligiga ko'ra — *davlat, soha, jamoat, ilmiy* va *audit* turlariga ajratiladi. U maxsus vakolatlangan va tegishli soha mutaxassis yoki mutaxassislar guruhining xulosasi bilan yakunlanadi.

Ekologik ekspertiza obyektlari — qonun hujjatlari, rejalar, loyihibar, moddalar va insonlarning atrof-muhitga ta'sir etuvchi yoki uning ta'sir etish ehtimoli bor boshqa faoliyat turlaridir.

2000-yil 25-mayda qabul qilingan va shu yilning 1-iyulidan kuchga kirgan «Ekologik ekspertiza to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 1-moddasiga ko'ra *«Ekologik ekspertiza — rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlashdir»*.

Mazkur Qonunga binoan respublikamizda uch turdag'i — davlat, jamoat va ekologik audit ekspertizasini o'tkazish mumkin.

*Davlat ekspertizasi* — Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining turli ekspert bo'linmalari tomonidan inson faoliyatini ekologik xulosalash. Ularning xulosalarida ko'rsatilgan talablarni bajarish ekologik munosabat subyektlari (davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar) uchun majburiydir.

*Ekologik audit* (ingl. «audit» — tekshirish) — davlat ro'y-xatidan o'tgan yuridik shaxslar (audit firmalari) tomonidan ekologik ekspertizani mustaqil, tarmoqdan tashqari bo'lgan tarzda olib borish.

*Jamoat ekspertizasi* — fuqarolar, fuqarolar yig'ini, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari hisobidan ekologik ekspertizani o'tkazish. Ular-nning xulosalari tavsiya kuchiga egadir.

### **Ekologik xavfsizlikni qanday tushunmoq kerak?**

*Ekologik xavfsizlik* — atrof tabiiy muhit holatini organizmlarning hayotiy zarur ehtiyojlariiga javob bera olishi yoki insonlar uchun sog'lom, toza va qulay tabiiy sharoitga ega atrof-muhit holati.

Ekologik xavfsizlik muayyan davlat milliy xavfsizligining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Lekin uning boshqa element (omil)lardan farqi (terrorizm, korrupsiya, qurolli to'qnashuv...) yashirin, ko'z ilg'amas tarzda namoyon bo'lishidadir. Shuning uchun ham «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga ko'ra *tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishda oshkoraliq prinsipini* qo'llash ifoda etilgan.

### **Ekologik qonunlarga qaysi bir qonunlar kiradi?**

*Qonun* — oliy yuridik kuchdagi huquq normasi. Uning qoidalari va me'yorlari davlat tomonidan ishlab chiqiladi, o'rnatiladi, muhofaza etiladi, umummajburiy kuchga ega bo'ladi va yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradi. *Maqsadi* — ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishdir.

Ekologik qonunlar ekologik munosabatlarni tartibga soladi, ya'ni kishilarni tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdagi xatti-harakatlarini o'rnatadi, muhofaza etadi va tegishli javobgarligini belgilaydi.

Qonunlar toifasiga, qonun osti me'yoriy hujjatlar — farmon, farmoyish, qaror, buyruq va yo'riqnomalar kirmaydi. «Qonun hujjatlari» yoki «qonun aklari» deyilgan iboralar ishlatsilsagina ular inobatga olinadilar.

O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat — Oliy Majlis bo'lib, unga Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisobdordir. 2002-yilga kelib ekologiyaga doir o'nlab milliy qonunlar qabul qilingan. Ekologik qonunlarni mazmuni va mohiyatiga ko'ra 3 guruhg'a ajratish mumkin:

*asoslashtirilgan* — hamma qonunlar qatori ekologik qonunlarga asos bo'lgan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi», «Mustaqillik deklaratasiyasi», «Oliy Majlis to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun, «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonun va hokazoiar ko'zda tutiladi;

*umumlashtirilgan* — boshqa turdag'i ijtimoiy munosabatlар bilan bir qatorda ekologik munosabatlarni ham huquqiy, huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunlar — «Fuqarolik kodeksi», «Jinoyat kodeksi», «Ijara to'g'risida»gi qonun, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonun va h.k.;

*ixtisoslashtirilgan* — ekologik munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan qonunlar — «Yer kodeksi», «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida», «Ekologik ekspertiza to'g'risida», «Alo-hida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida», «Yer osti boyliklari to'g'risida» va shu kabi qonunlar kiradi.

## **Ekoliya huquqi nimani o'rgatadi?**

*Ekoliya huquqi* jamiyatdagi ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishni o'zining o'rganish yoki izlanish predmeti qilib olgan o'quv kursi va fan sohasi. Respublikamiz uchun Ekoliya huquqi nisbatan yangi, tez shakllanib va rivojlanib kelayotgan huquq sohasidir. O'zbekiston Respublikasida u barcha o'rta maxsus va oliy yuridik o'quv yurtlari, malaka oshirish markazlari va institutlarida o'qitilmoqda. XX asrning 90-yillarigacha «Ekoliya huquqi» — «Tabiatni muhofaza qilish huquqi» va «Tabiiy resurslardan foydalanish huquqi» kabi fan va o'quv predmeti tarmoqlariga ajratilgan.

Ekoliya huquqining o'rganish yoki izlanish obyekti — tabiiy muhit (tabiiy obyekt, tabiiy resurs, tabiiy kompleks) va antropogen o'zgargan atrof-muhit (aholi punktlari, sanoat va agrar tegralar)dir. Umuman olganda esa *Ekoliya huquqining obyekti* bo'lib huquq me'yorlari asosida tartibga solish imkoniyati bor, tabiiy kelib chiqqan, ekologik tizimda turuvchi va insonlarning hayotiy zarur elementi sanalgan tabiat

obyektlari hisoblanadi. Ushbu shartlarning hattoki bittasiga javob bermaydigan atrof-muhit obyekti Ekologiya huquqining o'rganish yoki izlanish obyekti bo'la olmaydi.

## **Ekologik konsepsiya nima?**

*Ekologik konsepsiya* deb tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat shakllarini e'tirof etuvchi ma'lum bir dunyoqarashlar tizimiga aytildi. Quyidagilardan ekologik konsepsiyanlar juda keng avj olganlar: *naturalistik, iste'molchilik, ekologik inqiroz sabablari, o'sish chegarasi va organik rivojlanish, ekologik inqiloblar, muhofaza qilish va rivojlanish, sotsialistik, harakatlar strategiyasi, alarmizm*. Masalan, *Alarmizm* (nemis va ingлиз tillarda «alarm» — vahima, tashvish, xavotir) konsepsiysi namoyandalari Yer kurrasida ekologik inqiroz yaqinlashib kelayotganligi haqida xavotirga tushgan jamoat harakatidir. Ularning Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlari va Yaponiya kabi davlatlarda faoliyat yurgizuvchi tuzilmalari — «Grinpis», «Yashillar», «Kedr» kabi nodavlat uyushmalari va oqimlari mavjuddir.

## **Qanday muammolar ekologik muammolar toifasiga kiradi?**

Avvalambor *ekologik muammolar* o'z yechimini kutayotgan, ekologiyaga doir nazariy va amaliy masalalarga aytildi.

Ekologik muammolar ekologik xavfning ta'sir doirasiga ko'ra — *mahalliy (lokal), mintaqaviy (regional) va umumba-shariy (global)* turlarga ajratiladi. Orol va Orolbo'yini muammosi global ekologik muammolar toifasiga kiradi, chunki u nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Yer kurrasining ekologik xavfsizligiga tahdid solayotgan masaladir. Tojikiston Respublikasining Tursunzoda shahridagi aluminiy zavodi chiqindilarining Markaziy Osiyo mintaqasining xavfsizligiga tahdid solayotgani regional turdag'i ekologik muammodir. Respublikamizning su'g'orma yerlarida paxta yakka hokimligi natijasida yuzaga kelgan ekologik holat mahalliy yoki milliy (lokal) ekologik muammolar jumlasiga kiradi. Keyingi vaqtarda terrorizm ham ekologik muammolar toifasiga kirdizilmoxda. Chunki terrorizm natijasida atrof-muhitga va u orqali ekologik xavfsizlikka juda katta salbiy ta'sir etilmoqda.

## **Ekologik sug‘urta qanday hollarda qo‘llaniladi?**

*Ekologik sug‘urta* sug‘urtalanuvchilarning pul jamg‘armalari hisobiga tashkil etilgan va ekologik xavfli oqibatlar yuzaga kelganda, ularning moddiy va ma’naviy zararlarini qoplash bo‘yicha amalga oshiriladigan moliyaviy munosabatdir. Ekologik sug‘urta tabiiy yoki kishilarning xo‘jalik faoliyati natisida ekologik nobop holatlar bo‘yicha yuzaga keladi. Lekin ushbu holat *ko‘zda tutilmagan, ataylab qilinmagan va tasodifan vujudga kelgan* bo‘lsagina moddiy va ma’naviy zarar ko‘rgan jismoniy va yuridik shaxslarga sug‘urta jamg‘armasidan pul to‘lovi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘-risida»gi qonunining 36-moddasiga ko‘ra Ekologik sug‘urta obyekti — korxona, muassasa va tashkilotlarning mol-mulki va daromadlari, fuqarolarning hayoti, salomatligi, hamda mol-mulki bo‘lishi mumkin. Ekologik sug‘urta *majburiy* (ekologik xavfli faoliyatdagi yuridik yoki jismoniy shaxslarga) va *ixtiyoriy* (ekologik xavfi bor sharoitlarda yashovchi yoki faoliyat yurgizuvchi jismoniy va yuridik shaxslarga) bo‘lishi mumkin.

Ekologik sug‘urtani amalga oshirish tartibi va shartlari 1993-yil 6-mayda qabul qilingan Sug‘urta to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni va qonun hujjatlarida belgilab qo‘ylgan.

## **O‘zbekistonda qanday ekologik jamg‘arma (fond)lar bor?**

*Ekologik jamg‘arma* bu atrof-muhit muhofazasi va sanitargigiyenik holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni (dastur, reja, loyiha, konferensiya, munozara, uchrashuv, missiya) moliyaviy ta‘minlash maqsadida tuzilgan pul jamg‘armalaridir. Ular ma’lum bir davlatlar yoki nodavlat tashkilotlari hamda jismoniy shaxslarning pul jamg‘armalaridan tashkil topishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga qarashli *davlat* — respublika, viloyat, tuman, shahar jamg‘armalari; «MDH davlatlarining Ekologik jamg‘arma»si (yillik badal to‘lovlari har bir mamlakat milliy daromadining 0,05% miqdorida o‘rnatalgan); Markaziy Osiyo davlatlarining «Orol dengizini qutqarish» xalqaro jamg‘armasi

(yillik badal to'lovlari har bir mamlakat uchun milliy budjetning 0,3% miqdorida belgilangan); nodavlat, notijorat xalqaro «Ekosan» jamg'armalari mavjud.

## **Ekologik javobgarlik bu yuridik javobgarlik deganimi?**

Yo'q, chunki *ekologik javobgarlik* ekologik xavfsiz muhitni ta'minlashdagi davlat, jamiyat va shaxslarning hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi burchlari va majburiyatlari hamda ularni bajarmasligi tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy va yuridik xarakterdagi oqibatlardir.

Mazmun va mohiyatiga ko'ra ekologik javobgarlikni uch qismga ajratish mumkin:

1. *Ijtimoiy-ekologik javobgarlik.* Kishilarning ekologik javobgarligi qonun hujjatlarda aks etmagan, lekin azaliy milliy va hududiy an'analardan kelib chiqqan ahloq-odob me'yorlari. Masalan, sharq xalqlarida «Navro'z» ayyomida yoki bola tug'ilganda kishilarning ularga bag'ishlab ko'chat ekishlari, yoxud yerlarni e'zozlab, ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borishlari. Albatta, bu odob-axloq me'yorlari huquqiy jihatdan majburiy tusga ega emas, chunki qonunlashtirilmagan. Lekin insonlarning jamiyat oldidagi, davlat boshlig'i, hokimiyati va boshqaruva organlarining o'z fuqarolari oldidagi burchi va majburiyati ularning ijtimoiy javobgarligidir. Aks holda kishi, oila, jamoa yoki mansabdar shaxs, insonlar yoki o'z fuqarolari nazaridan qoladilar va ularga nisbatan jazo sanksiyasi chorasi tariqasida ularni to'y yoki marakalarga chaqirmaslik, qiz yoki o'g'lini uning farzandlariga unashtirishga loyiq deb topmaslik, hurmat qilmaslik. Umuman olganda, ekologik harakatda bo'l-maganlarni kishi, jamiyat va xalq nazaridan qolishlaridir. Bunday ijtimoiy turdagи ekologik javobgarlik davlat va shaxslarning o'z xalqi, atrofdagi kishilar va kelajak avlodlar oldidagi ijtimoiy javobgarligidir.

2. *Iqtisodiy-ekologik javobgarlik.* Kishilarning ekologik javobgarligi qonun normalarida belgilangan, lekin ularning yashashi uchun zarur bo'lgan (insonlarning tabiiy — gumanitar huquqidан kelib chiqadigan) harakatlari yoki harakatsizliklari orqali kelib chiqadigan moddiy javobgarlikdir. Masalan, aholining chuchuk suv iste'mol qilishi zarur holat, lekin uning

tanqisligi va ekologik tizimlardagi o'rni va ahamiyatini hisobga olgan tarzda har bir kishiga ma'lum bir me'yor belgilangandir. Bu me'yorlash kishilarning tabiat oldidagi burchini ifoda etib, unga yetkazilgan ziyonni moliyaviy qoplash maqsadida ekologiya solig'i, suv, yer, yer osti boyliklaridan foydalanganliklari va atrof-muhitni ifloslantirganliklari uchun soliq to'lash orqali javobgarlikka tortiladilar. Ushbu iqtisodiy xarekterdagi javobgarlikdan tushgan moliya mablag'larining aksariyat qismi bu-zilgan tabiiy tizimlarni qayta tiklash, atrof-muhitni muhofaza qilish va uni sog'lomlashtirishga yo'naltiriladi.

3. *Huquqiy-ekologik javobgarlik*. Qonun normalarida belgilangan ekologik harakat yoki harakatsizlik qoida va me'yollarini buzganligi uchun huquq sub'ektlariga (qonunbuzarlarga) nisbatan davlatning majburlov sanksiyalarini qo'llaniladigan yuridik javobgarlik. U davlatning majburlov sanksiyalarini qo'llash orqali huquqbuzarlarga noqulay sharoitlarni keltirib chiqardi. Ular javobgarlikning tabiatni, mazmuni, ijtimoiy xavf-liliga qarab — jinoiy, fuqaroviyligi, ma'muriy va intizomiylariga ajratiladi.

### **Ekologik soliq qanday olinadi?**

*Ekologik soliq tabiiy obyektlaridan foydalanganliklari, shuningdek atrof-muhitni ifloslantirganliklari uchun jismoniy va yuridik shaxslardan doimiy, muddatli yoki bir marotabalik to'-lovlarning undirilishi*. Ushbu moliyaviy mablag'lar tabiatga yetkazilgan zararni qoplash, tabiiy hudud yoki obyektlarni tiklash va qayta ishlab chiqarish maqsadida yig'iladi.

Ekologik soliqqa:

- ekologiya solig'i;
- yer solig'i;
- yer ostidan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining IX bo'lim 35-bobiga binoan *Ekologiya solig'i* tovarlar ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslarning ishlatib chiqarish tannarxidan 1% miqdorda olinadi. Ekologiya solig'idan «Nuroniy» jamg'armasi va uning korxonalari, ishlovlchilarining umumiyligi soni kamida 50% nogironlardan iborat bo'lgan, hamda savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyor-

lov faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan yuridik shaxslar ozod qilinadilar.

Soliq to‘lov stavkalari 1997-yil 24-aprelda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Soliq kodeksi» va uning asosida qabul qilingan qaror va yo‘riqnomalarga binoan belgilanadi.

### **Respublikamizda qaysi davlat organi ekologik boshqaruvni amalga oshiradi?**

*O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi* — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 26-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko‘ra, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash bo‘yicha davlat nazoratini va tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiruvchi, idoralardan ustun turuvchi va muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatlari davlat organi. U to‘g‘ridan to‘g‘ri qonun chiqaruvchi hokimiyat — Oliy Majlisga bo‘ysunadi va unga hisobdordir. Chunki Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining xo‘jalik yurituvchi subyekt emas, balki tabiatni muhofaza qilishning kompleks nazoratini olib boruvchi organdir. Shuning uchun ham Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis tasdig‘iga taqdim qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining yagona tizimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitalari (inspeksiyalari), shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar kiradi.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tarmoqlararo kompleks boshqarish;
- tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- atrof-muhitning ekologik holati qulay bo‘lishini ta’milash, ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish.

## **Nima uchun «Qizil kitob» deb nomlanadi?**

Har birimizga ma'lumki, har bir rang insonlar faoliyatida o'zining ma'lum bir xususiyati va ahamiyatiga ega. *Yashil* — ochiq yo'l, yorug'lik va istiqbol siymosi; *sariq*-ogohlantiruvchi va ehtiyyotkorlik belgisi; *qizil* — xavfli ta'qiqlovchi va man qiluvchi ramziy ma'no anglatadi. Shuning uchun ham kamyob va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish uchun inson faoliyatini taqilash yoki man qilish maqsadida ro'yxatlangan va qizil tusdagi kitobdir.

*Qizil kitob* — bu yo'qolgan yoki yo'qolish arafasida turgan, yo'qolib borayotgan, kamyob va kamayib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosining genofondini saqlab qolish maqsadida tashkil etilgan ma'lumotlar ro'yxati (reyestri). Ushbu kitobda o'simlik va hayvonot dunyosi turlarining qisqacha tavsifi, tarqalishi, o'sish va yashash sharoiti, ko'payishi, areali (tarqalish maydoni) va uning o'zgarishi, ularni madaniylashtirish va xonakilashtirish, muhofaza etish choralar ko'rsatilgan bo'ladi.

1940-yildan boshlab Xalqaro tabiatni qo'riqlash ittifoqi «Xalqaro Qizil kitob»ga ma'lumotlar to'play boshladi va 1966-yili «Qizil kitob faktlari» (Red Data Book) nomi bilan uni chop etdi. O'zbekistonda «Qizil kitob» dastlab 1983-yil rus tilida ikki jilda: 1-jildi «Umurtqali hayvonlar» va 1984-yil 2-jildi «O'simliklar» chop etildi. 1998-yil «O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi»ning 1-jildi «O'simliklar» o'zbek tilida chop etildi. Unga keyingi 14-yil ichida yo'qolish arafasida turgan 138 o'simlik turi qo'shilgan bo'lib, ularning soni 163 tadan 301 taga yetgan.

## **Hayvonot bog'i nima maqsadda tashkil etiladi?**

*Hayvonot bog'i ekologik ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yish, hayvonlarning nodir, ekzotik va mahalliy turlarini saqlab qolish, yovvoyi hayvonlarni yo'lga o'rgatish hamda ularni tutqunlikda ko'paytirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish maqsadida tashkillashtirilgan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud. O'zbekistonda stasionar ko'rinishdagi davlat hayvonot bog'lari Toshkent va Termiz shaharlarida mavjud. 1993-yil 7-mayda qabul qilingan Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hu-*

dudlar to‘g‘risidagi qonunning 4-moddasiga muvofiq (botanika va dendrologiya bog‘lari bilan bir qatorda) hayvonot bog‘i turli mulk shakllarida tashkil etilishi mumkin.

### **Orolbo‘yi genofondini muhofaza qilish xayriya jamg‘armasi qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?**

Ekologik inqirozli hudud bo‘lgan Orolbo‘yida ekologik holatni yaxshilash, aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash va atrof tabiiy muhitini muhofaza qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-aprel 162-sonli qarori bilan «Orolbo‘yi genofondini muhofaza qilish xayriya jamg‘armasi» tashkil etildi. Uning asosiy vazifalari etib:

Orolbo‘yi aholisi sog‘lig‘ini saqlash va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha tizimli dasturlar va loyi-halar ishlab chiqishni tashkil etish va ularni amalga oshirish:

- sog‘liqni saqlash mintaqaviy tizimini takomillashtirish, aholining, ayniqsa bolalar va ayollarning sog‘lig‘i darajasini oshirishda, sanitariya-epidemiologiya vaziyatni yaxshilashda, kundalik hayotga oilaviy salomatlik madaniyatini joriy etishda yordam ko‘rsatish;
- atrof tabiiy muhit, jumladan Orolbo‘yi o‘simlik va hayvonot dunyosini sog‘lomlashtirish hamda muhofaza qilish muammolarini hal etishga jamoatchilikni jalb etish;
- mintaqaning biologik xilma-xilligini saqlashda va tiklashda faol ishtirok etish;
- ushbu vazifalarni hal qilishga xalqaro tashkilotlarni keng jalb etish.

